

81.


Gulbahor ROZIQOVA

**GAP QURILISHIGA XOS
SHAKLIY-MAZMUNY
NOMUTANOSIBLIK VA
SINTAKTIK POLISEMIYA**



Gulbahor ROZIQOVA

**GAP QURILISHIGA XOS
SHAKLIY-MAZMUNY
NOMUTANOSIBLIK VA
SINTAKTIK POLISEMIYA**



Mas'ul muharrir: A.MAMAJONOV,
filologiya fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar: D.NABIYEVA,
ADU dotsenti, filologiya fanlari doktori.

N.UMAROVA,
filologiya fanlari nomzodi.

Mazkur risola universitet ilmiy Kengashining 2012-yil 29-iyundagi 10-yig'ilishida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

G. ROZIQOVA
GAP QURILISHIGA XOS SHAKLIY-MAZMUNYI NOMUTANOSIBLIK VA
SINTAKTIK POLISEMIYA / «JAHONNASHRIYOT», 2012/.

Risolada tilshunoslikning, xususan, o'zbek tili sintaksisining asosiy muammosi sanaluvchi gaplarning shakliy – mazmuniy tuzilishiga doir nomutanosiblik va sintaktik polisemiya masalalari yuzasidan fikr yuritiladi. Mazkur qo'llanma filologiya fakulteti talabalariga mo'ljallangan bo'lib, undan magistrantlar, stajyor – tadqiqotchi – izlanuvchilar, shuningdek, mazkur soha bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borayotgan mutaxassislar foydalanishlari mumkin.

KIRISH

O'zbek tilshunosligida shakliy-mazmuniy nomutanosiblik masalasiga alohida e'tibor berilgan. Ayniqsa, lug'aviy omonimiya, lug'aviy ko'p ma'nolilik, lug'aviy sinonimlik, lug'aviy dubletlilik masalalari tadqiqiga bag'ishlangan ishlar anchagina. Hatto, o'zbek tili morfemikasining asosiy masalalaridan biri sanalmish affiksatsiya bilan bog'liq shakl va mazmun nomutanosibligi ham e'tibordan chetda qolmagan. Bunday ishlarda ham asimmetriyaning ayni ana shu jabhasiga daxldor masalalari tekshirish obyektiga tortilgan.

Paradigmatik nomutanosiblikning sintaktik sathda markaziy birlik hisoblanuvchi gap va uning qurilishi bilan bog'liq masalalarini tadqiq etish alohida nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Lekin paradigmatik nomutanosiblikning sintaktik birliklarga xos ko'rinishlarining o'rganilishini yetarli deb bo'lmaydi.

O'zbek tilshunosligida gaplarning ko'p ma'noliligi, ularning tildagi o'rni masalasi tilshunos olimlarning diqqat – e'tiboridan ma'lum darajada chetda qolib kelayotgan muammolardan biridir. Bundan tashqari, gaplarning ko'p ma'noliligi to'g'risidagi fikrlar hanuzga qadar ba'zi bir chalkashliklarga, xilma – xilliklarga egaligicha qolmoqda.

Achinarlisi shundaki, ba'zi tilshunoslar sintaktik sathda polisemiyaning mavjudligiga shubha bilan qaraydilar.

Shakl va mazmun paradigmatik nomutanosibligi bilan bog'liq gap polisemiyasini tadqiq etish alohida nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

GAP QURILISHIDA SHAKLIY-MAZMUNİY NOMUTANOSIBLIK

Grammatik ma'no va gap modeli xususida

Gap qurilishiga xos shakliy va mazmuniy mutanosiblik yoxud nomutanosiblik haqida, shuningdek, sintaktik polisemiya xususida fikr yuritishdan oldin grammatik ma'no haqida mufassalroq to'xtalishga to'g'ri keladi. Chunki gap grammatik ma'nosi va uni o'rganishning nazariy hamda amaliy ahamiyati sheksiz katta. Buni o'z vaqtida Y.V.Guliga ham to'g'ri e'tirof etadi. Uning yozishicha, tilning sintaktik sathiga xos asosiy birlik hisoblanuvchi gap va uning grammatik ma'nosini bilmasdan turib, lingvist amalda sintaksisga xos sinonimiya, polisemiya va omonimiya masalari haqida, leksik, morfologik va sintaktik birliklararo munosabatdoshlik haqida fikr yuritishga o'jiz va qodir emas. Ayni paytda bunga haqqi ham yo'q.¹

O'zbek tilshunosligi tilning barcha sath birliklarini nazariy jihatdan o'rganishda ma'lum yutuqlarga erishdi. Jumladan, sintaktik sath nisbatan ko'proq hamda jiddiyroq tadqiq etilgan. Chunki tilning harakati, amali uning grammatik qurilishi orqali ifodalanadi. Kopengagen maktabining yetuk namoyondalaridan biri Lui Yelmslev grammatikani (grammatik qurilishni) tilning «joni»ga o'xshatadi va ana shu o'xshatish orqali uni tilning «tana»si hisoblanuvchi leksika (lug'at tarkibi)ga qarama – qarshi qo'yadi. Shu bois har qanday tilning funksional imkoniyati uning grammatikasi (grammatik qurilishi) orqali ro'yobga chiqadi: grammatika tilning funksional imkoniyatini belgilovchi

¹ Гулыга Е.В. О семантике предложения // Теоретические проблемы синтаксиса современных индоевропейских языков. Л.:Наука, 1975, - с. 21.

o'lhovdir.

An'anaviy tilshunoslikda grammatik ma'no va grammatik kategoriya tushunchalariga keng doirada yondashilgan. Xususan, grammatika atamasining o'zi eng kami bilan ush hodisani (tipni) o'z ichiga olgan. Ular quyidagilar: 1) kelishik, egalik, shaxs-son, zamon kategoriyalarining, mustaqil ma'noli, shuningdek, yordamchi so'z turkumlarining ma'nolari; 2) ega, to'ldiruvchi va holga o'xshash funksional-sintaktik kategoriyalarning ma'nolari; 3) gapning har xil kommunikativ maqsadlar bilan bog'liq (darak, so'roq va buyruq) ma'nolari.¹

Grammatik ma'no tushunchasi, garchand grammatika ixtiyoridagi ma'no bo'lsa-da, u tilning lug'aviy sathiga xos ma'nolarga tayangan bo'ladi. Shakl va ma'no munosabati aslida tilning muhim belgilaridan biri bo'lib, unda tovushning ma'no bilan, ifoda planining mazmun plani bilan birikuvidan iborat shakl va mazmunning qo'shilishi tushuniladi.

Grammatik ma'nolar o'z shakllanish jarayonida lug'aviy ma'nolarga nisbatan tilning ichki sistemasi ta'siriga ko'proq uchraydi. Shuning uchun bunday ma'nolar tilning kommunikatsiya vositasi sifatidagi vazifasini belgilaydigan ichki qurilishini shakllantiradi. Grammatik ma'nolarning ayrim turlari abstraksiyaning abstraksiyasi bosqichida turadi. Ularda tilning ichki sistemaviy munosabat va aloqalari o'z ifodasini topgan bo'ladi. Shuning ushun grammatik ma'nolardan ularga muvofiqlashuvchi nolisoniy borliqni qidirish mutlaqo mumkin emas.

Lug'aviy va grammatik ma'nolar tilning har xil sathlariga xos semantik qiymat bilan farqlansa-da, aslida ular orasida «xitoy devori» bilan ajraluvchi mutlaq chegara yo'q.

¹ Булыгина Т.В. Грамматические и семантические категории и их связи// Аспекты семантических исследований. – М., 1980. –с. 323.

Semantika bilan qorishgan grammatika gap (jumla) tarkibida soʻz shakllari va ularning qoʻshiluvidan tashkil topgan butunliklar alohida olingan konkret narsa – hodisalarni emas, balki narsa va hodisalarning umumlashgan guruhlari, ular orasidagi munosabatlarning umumlashgan xususiyatlarini aks ettiradi. Grammatik qurilishning ana shu semantik xususiyatlari tilning borliqni bir butun tarzda inʼikos etishdagi fundamental va ahamiyatli rolini boʻrtirish uchun xizmat qiladi.

Morfologik va sintaktik sath hodisalarini oʻzida mujassamlashtirgan grammatika va unga xos maʼnolar soʻzning «ichki» tomoni bilan xarakterlanuvchi, soʻzning ichki tomoni bilan ifodalanuvchi maʼnolardir. Bunday maʼnolar, eng avvalo, funksional xususiyatlarga emas, balki shakliy xususiyatlarga asoslangan boʻladi.¹

Alohida olingan soʻzlar maʼnosi predmetlar haqida tushuncha anglatish xususiyatiga ega boʻladi; gap maʼnosi esa ana shu narsa – predmetlarning obyektiv borliqdagi holatini bildiradi. Boshqacha taʼbir bilan aytganda, alohida olingan soʻzlar gapdan tashqarida mavhumlik maʼnosiga ega boʻlsa, gap tarkibida ular konkret maʼnolar kasb etadi.

Lugʻaviy va grammatik maʼnolar biri boshqasi bilan bogʻliq boʻlgan semantik tushunchalardir. Lugʻat boʻlmasa, grammatika ham boʻlmaganidek, lugʻaviy maʼnolar boʻlmasa, grammatik maʼnolar ham boʻlmaydi. Yana soddaroq qilib aytganda, soʻz boʻlmasa, nutqiy – sintaktik butunliklar ham boʻlmaydi. Sintaktik butunliklar (aniqrogʻi, gaplar)ning maʼnosi, uning kommunikativ qiymati maʼlum maʼnolarda qoʻllangan soʻzlar orqali belgilanadi. Chunki soʻzning haqiqiy maʼnosi sintaktik qurshovda yuzaga chiqadi. Soʻzlar nutqiy jarayonda

¹ Булыгина Т.В. Проблемы теории морфологических моделей. М.: Наука, 1977, - с. 28.

(sintaktik qurshovda) funksional ma'noga ega bo'ladi. So'zlarning nutqiy jarayonda funksional ma'no kasb etishi fikrning tug'ilishiga turtki bo'ladi. Yana ta'kidlaymiz: so'zlarning funksional ma'nolari sintaktik qurilmalar doirasida ma'lum bo'ladi. Har qanday gap ana shu jarayon mahsuli sifatida konkretlashadi, boshqa gaplardan farq qiladi. Gaplardagi fikr (mazmun)ning induviduallashuvi (xususiylashuvi) quyidagi to'rt komponent hisobiga amalga oshadi. Ular: a) so'zlarning induvidual lug'aviy ma'nolari; b) so'zlarning grammatik ma'nolari; v) so'zlarning nutq vaziyati bilan bog'liq funksional ma'nolari; g) so'zlarning boshqa so'zlar bilan munosabatidan hosil bo'luvchi qurilmalar (konstruksiya) ma'nosi.¹

So'zlarning sintaktik qurilma (gap)lar tarkibidagi ma'noviy xususiyatlarini *Sekin yelib mayin shamollar, Keltiradi rayhon bo'yini* (Zulfiya) gapida ishtirok etgan *shamollar* so'zining ma'nolarini keltirish bilan farqlash mumkin. Mazkur gap tarkibidagi *shamollar* so'zi quyidagi ma'nolarga ega: 1) leksik ma'no; 2) guruhiy ma'no (ot); 3) tagguruh ma'no (jonsiz predmet); 4) subyekt ma'nosi (ega sifatidagi gap bo'lagi); 5) obyekt ma'nosi (so'z birikmasining hokim qismi sifatida). Keltirilgan birinchi uchta ma'no *shamollar* so'zining gap tarkibiga kiringuncha bo'lgan ma'nosidir. Bu ma'nolar *shamollar* so'zining sintaktik qurshovda boshqa so'zlar bilan munosabati tufayli hosil bo'lmagan. *Shamollar* so'zining to'rtinchi va beshinchi ma'nolari gap qurilishining yuza sathiga xos birliklari (uning gap tarkibidagi boshqa so'zlar bilan aloqasiga asoslangan tushuncha)ning shu gapning ichki qurilishiga (semantik qurilishiga) monand mazmuniy qiymatlaridir.

¹ Солнцев В.М. К вопросу о глубинной структуре и порождении смысла предложения// Теория языка. Англистика. Кельтология. - М., 1976, - с. 122

Grammatika morfologiya va sintaksis kabi ikki qutb (qism)ga ajralganidek, unga xos ma'nolar ham qonuniy tarzda ikki qutb (qism)ga ajraladi: morfologik (morfologiyaga oid) ma'nolar, sintaktik (sintaksisga xos) ma'nolar. Morfologiya doirasidagi ma'nolar bilan sintaksisga xos ma'nolar biri boshqasi bilan qanchalik bog'liq bo'lmasin, ma'lum darajada farq ham qiladi.

Morfologiyaga daxldor grammatik ma'nolar morfologik kategoriyalar ma'nosidir. Morfologik kategoriya ostida grammatik elementlarning umumlashgan ma'nolarini bildiruvchi so'z shakllari tizimi tushuniladi.

R.A.Budagov sintaksisning mazmuniy jabhasi haqida shunday deydi: «Sintaksis o'z ma'noviy kategoriyalariga ega. Ma'noviy (mazmuniy) kategoriyalar sintaksisda ham markaziy maqomda bo'ladi... Mazmuniy kategoriyalardan tashqarida sintaksis o'zining «ruhi»ni yo'qotadi va shartli qoidalarning jonsiz majmuasiga aylanadi.»¹

Sintaksisga daxldor grammatik ma'no predikativlikdir. Bundan tashqari, so'z birikmasi va gap tarkibiy elementlarining mavhum grammatik andoza xarakteridagi ichki bog'lanishlari; semantik subyekt, semantik obyekt, semantik predikat, semantik atribut kabi tushunchalarning ma'nolari; qo'shma gap qismlarining bog'lovchilar yordamida birikuvi tufayli ro'yobga chiqadigan har xil ma'nolar ham sintaksisga daxldordir.²

Morfologiyada grammatik ma'noni tashuvchi shakliyl birlik so'z shakli sanalsa, sintaksisda grammatik ma'noni tashuvchi shakliyl birlik gapning qurilish andozasidir. Gapning qurilish andozasi, ayni o'rinda, predikatsiya tushunchasining lisoniy shakli hamdir. Predikativlik kategoriyasi barcha tillar

¹ Будагов Р.А. Человек и его язык. – М.: МГУ, 1976, - с. 194

² Лопатин В.В. Грамматическое значение//Лингвистический энциклопедический словарь. – М., 1990, - с. 116

ushun mushtarak mantiqiy tushuncha hisoblanadi. Predikatsiyaning reallashgan shakllarigina turli tillarda turlicha bo'ladi. Predikatsiya fe'lli va otli gaplarda farq qiladi. Otli gaplarda predikat vazifasidagi fe'l qatnashmaydi. Bunday gaplarda zamon kategoriyasi ham ifodalanmaydi.

Ana shu narsani nazarda tutib bo'lsa kerak, ayrim tilshunoslar, masalan, M. Abuzalova otli gaplarning o'zbek tiliga mansubligini inkor etgandek bo'ladi. «Kesimi shaxs – son ko'rsatkichiga ega bo'lmagan gaplar o'zbek tilida rus tilining tipologik ta'siri bo'lishi mumkin. Shubhasiz, bunday qurilishdagi gaplarda ega gapning zaruriy bo'lagidir. Chunki kesim tarkibida shaxs – songa ishora qiluvchi qo'shimchalar mavjud emas. Lekin bunday gaplar o'zbek tilida keng tarqalgan»¹ deyish bilan otli gaplarning turkiy tillarga xos tarixiy tadrijini hisobga olmagan. N.A. Basakov *Men ishchi* tipidagi gaplarni tarixan *Men ishchidururmen* tarzidagi shaklda paydo bo'lganligini e'tirof etadi. Masalaga ana shu nuqtai nazardan yondashilsa, *Men ishchi*, *Sen ishchi*, *U ishchi* tipidagi gaplarni rus tilining tipologik ta'siri bilan bog'lab bo'lmaydi, balki ularni sintaktik konstruksiyalarning til taraqqiyotining boshqa, keyingi etaplariga xos «tejalgan» variantlari deyish mumkin.

Xullas, sintaksisga xos grammatik ma'nolarda gap va uning mazmun jabhasi markaziy o'rin ishg'ol qiladi. Gapning mazmuniy jabhasini grammatik aspektda o'rganishda ikki masalani hal qilib olishga to'g'ri keladi:

A) konkret gaplararo farq qiluvchi qaysi ma'noviy xususiyatlarni grammatika ixtiyoriga kiritish to'g'ri bo'ladi?

b) gapning umumiy mazmuni gapning grammatik shakl va sintaktik andozalari (modellari) semantikasida qanday mavqega

¹ Абузалова М.К. Ўзбек тилида содда гапнинг энг кичик қурилиш қолипи ва унинг нутқда воқеланиши. Филол.фанлари.номзоди... дисс.автореф. – Т., 1994, 10-б.

ega bo'ladi (boshqacha aytganda, gapning mazmuniy qurilishida grammatik kategoriyalar semantikasi ishtirokining maromi, darajasi qanday bo'ladi)?¹

Bu muammoni bir yoqlama hal qilishda ikki narsaga amal qilinadi: 1) har qanday shakliy farq (ko'rinish)ning ma'lum bir sintaktik qiymatga ega bo'lishini shak – shubhasiz, tan olish; 2) grammatik semantika qamrovidan gap struktur sxemasi (modeli, andozasi)ning lug'aviy qobiq bilan aloqador xususiyatlarini chiqarib tashlash.² Shunisi ham borki, gap tarkibining so'z birikmasi xarakteridagi qismlarining ba'zilari (atributiv birikmalar) bitishuv aloqasi yordamida hosil bo'ladi va ularning tobe qismlari gapning semantik va sintaktik qurilishida zaruriy ahamiyat kasb etmaydi. Bundan tashqari, gap tarkibining ko'plik qo'shimchasini olgan so'z shakllari ham nolisoniy qiymat kasb etib, grammatika ushun ahamiyatsiz «bo'lak» hisoblanadi. Shular bilan bir qatorda, yana shu narsani e'tirof etish zarurki, gapning semantik – sintaktik modellastirilishida uning ayrim lug'aviy birliklari muhim ahamiyat kasb etadiki, ularni inkor etish to'g'ri bo'lmaydi. Bunday lug'aviy birliklarning gapga bo'lgan munosabati grammatik xarakter kasb etib, ularning leksik ahamiyati kuchsizlashadi. Shuni alohida e'tirof etish zarurki, gapning semantik qurilishida so'zlarning denotativ ma'nolari emas, balki ularning ma'lum bir lug'aviy guruhga xoslangan mavhum kategorial ma'nolari muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Chunki gap semantik qurilishida so'zlarning denotativ ma'nolari so'nib, boshqa ma'no qiymati kasb etish hollari ko'p uchraydi. Xullas, gap semantikasi turli sabablar bilan bog'lanuvchi murakkab qurilma bo'lganligi ushun, gapning grammatik va semantik jabhasida muttasil ravishda nomuvofiqliklar yuz berib

¹ Булыгина Т.В. Грамматические и семантические категории и их связи// Аспекты семантических исследований. – М., 1980. –с.320

² O'sha yerda, 321-b.

turadi.¹

Aytilganlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, gapning (umuman, sintaktik qurilmalarning) grammatik va semantik tomonlari nihoyatda murakkab bo'lib, ularni xarakterlovchi xususiyatlarda dialektikaning inkorni inkor va istisno singari qonuniyatlari amal qiladi. Gapning grammatik va semantik qurilishi bilan bog'liq xususiyatlari dialektikaning bunday qonun va qoidalariga bo'ysunmaganda edi, sintaksisga (xususan, gapga) xos grammatik ma'nolarni xarakterlovchi yuqoridagi ikki mezon bilan kifoyalangan bo'lardik. Ularni ma'lum jihatlarga ko'ra inkor etuvchi keyingi istisno holatlarga o'rin qolmagan bo'lardi.

Gapning grammatik ma'nosi uni til birligi sifatida xarakterlash uchun xizmat qiladi. Shuning ushun nazariy sintaksisda gapning ana shu ma'nosiga e'tibor beriladi.

Gapning grammatik ma'nolarini va uning xususiyatlarini to'g'ri aniqlash va to'g'ri idrok etish uchun gapning grammatik qurilishi, gap grammatik qurilishining o'ziga xos xususiyatlari kabi tushunchalarni hal qilib olish zarur bo'ladi. Chunki gap tilning belgilar sistemasidagi ko'rinishlaridan biri bo'lib, har qanday til belgisida bo'lgani kabi, unda ham biri boshqasini qonuniy taqozo etuvchi ikki qutb mavjuddir: ulardan biri gapning grammatik shakli (ifoda plani) bo'lsa, ikkinchisi uning ma'no tomoni (mazmun plani)dir. Gapning grammatik shakli gap modeli (andozasi, struktur sxemasi, eng kishik qurilish qolipi) atamasi orqali anglashiluvchi tushunchadir. Gapning grammatik va semantik qurilishi, uning til belgilar sistemasiga munosabati masalalari gap tuzilishi modeli tushunchasi va uning xususiyatlari tufayli hal etiladi.

¹ Валимова Т.В. О соотношении семантической и формальной структуры предложения//Семантическая структура предложения. – Ростов, 1978, - с. 26-27.

Model va modellashtirish til va nutqni farqlash tufayli vujudga keldi. Til va nutqni farqlash F. de Sossyur ta'limotini konkret tillarga tatbiq etish bilan bog'lanadi. Til va nutq munosabatini anglash uchun til va uning xususiyatlari, nutq va uning xususiyatlari kabi tushunchalar mohiyatini bilish nihoyatda zarur va muhimdir. Til o'ziga xos butunlik bo'lib, u diskret (ajraluvchi, qismlarga bo'linuvchi) birliklar majmuasidir. Uning birliklari biri boshqasini hosil qilish xususiyatiga ega. Bunday xususiyat ierarxiyasi (silsilali, pog'onali) munosabatlarga asoslanadi: tilning quyi sath birliklari o'zaro qo'shilib (sintagmatik munosabatlarga kirishib), uning (tilning) yuqori sath birliklarini hosil qiladi.

Nutq tilning amali, uning konkret ifodasidir. Tilning turli sathlarga xos birliklari reallashib, nutq birliklariga aylanadi. Til birliklarining nutq birliklariga aylanishi murakkab fizik-fiziologik va psixik jarayonlarni o'z ichiga oluvchi tabiiy-ijtimoiy shart-sharoitlarni talab qiladi. Bunday jarayonlarda til birliklari mavhum jabhadan aniq jabhaga «ko'chadi» – nutq organlarining faol harakati tufayli tovush qobig'iga ega bo'lib, pertseptiv xarakter kasb etadi – tasavvur etiladi: fonemalar tovushlar, morfemalar allomorflar, leksemalar allekslar, sintaksemalar so'z birikmalari yoxud jumla (gap)lar maqomida seziladi – eshitiladi (yozuvda harfiy ifodalari orqali aniq shaklga kiradi).

Model va modellashtirish til birliklarining shakliy, ramziy, ayni vaqtda, shartli ifodalari bo'lib, u til hodisalarini to'g'ri tasavvur etishni osonlashtiradi. Shuning ushuni model va modellashtirish tushunchalari inson ongli faoliyatining mahsuli sifatida metatil hodisasi hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlarda model atamasining 30ga yaqin definitsiyasi mavjud. Mavjud definitsiyalarning aksariyat qismida model atamasi matn birliklari (so'z, gap)ning andozasi sifatida e'tirof etiladi. Model atamasi ostida ba'zan matn materiallarining

tasviri tushuniladi. Bunday hollarda har qanday lug‘at tarkibi, grammatika til modeli sifatida qaraladi. Chunki til materiallari tasvirida modelga tushmaydigan, modellashtirib bo‘lmaydigan faktlar ham ko‘p uchraydi.

Gap modeli haqida fanda anchagina fikrlar aytilgan. Ayrim terminologik va boshqa farqlarni hisobga olmaganda, bu tushuncha haqidagi qarashlar deyarli mushtarakdir. T.P.Lomtev, M.D.Stepanova, N.Y.Shvedova, G.A.Zolotova, L.L.Iofik, A.M.Muxin, O.I.Moskalskaya, V.A.Beloshapkova, Y.V.Guliga, S.Y.Kryuchkov, L.Y.Maksimovlarning tadqiqotlarida rus va g‘arbiy Yevropa tillari materiallari asosida gap modeli o‘rganiladi. Y.V.Guliga, S.Y.Kryuchkov, L.Y.Maksimov va V.A. Beloshapkovalarning ishlarini hisobga olmaganda, nomlari tilga olingan tadqiqotchilarning barchasi sodda gaplarning modeli (modellashtirish) haqida fikr bildiradilar.

O‘zbek tilshunosligida gap modeli haqidagi dastlabki ma‘lumotlar A.Nurmonov, A. Berdialiyev, R. Sayfullayeva, M.Abduzalovalarning tadqiqotlarida uchraydi.¹

Gap modelini belgilashda yuqorida aytilganidek, jiddiy bo‘lmagan ikki nuqtai nazar mavjud. Birinchi nuqtai nazar tarafdorlari gap modeli sifatida gapning grammatik asosini ta‘minlash uchun xizmat qiluvchi bir yoki bir necha so‘z shaklidan iborat qurilmani tan oladilar. Ikkinchi nuqtai nazar tarafdorlari gap modeli uchun gapning grammatik asosini shakllantiruvchi so‘z shakllaridan tashqari, uning informativ – kommunikativ layoqati uchun ham muhim bo‘lgan so‘z shakllarini zarur deb hisoblaydilar. Bunday nuqtai nazar N.Y.Shvedova, E.I.Kokorinalarga taalluqli bo‘lib, V.G.Admoni,

¹ Нурмонов А. Проблемы системного исследования синтаксиса узбекского языка. – Т.: Фан, 1983; Бердиалиев А. Эргаш гапли қўшма гап конструкцияларида семантик – сингификатив парадигматика. – Т.: Фан, 1989; Сайфуллаева Р. Уюшган гаплар/Ўзбек тили ва адабиёти. 1988, 3-сон; Абузалова М.Қ. Ўзбек тилида содда гапнинг энг кичик қурилиш қолипи ва унинг нутқда воқеланиши. Филол.фанлари.номзоди...дисс.автореф. – Т., 1994.

E.A.Ivanchikova, I.P.Raspopov, M.Z.Zakiiyev, A. Nurmonov, A. Berdialiyevlarning tadqiqotlarida ham hisobga olinadi.

Xullas, gap modeli deganda gapning tilga xos mavhum qurilmasi tushuniladi. Gap modelida nutq birligi (jumla) xarakteridagi gapning tuzilishi hisobga olinmaydi.

Gapning tovush qobig'iga o'ralgan konkret «eshdoshi» gap modelining nutqiy realizatsiyasi hisoblanadi. Gapning nutq birligi (jumla) xarakteridagi konkret ko'rinishi bilan gap modeli tushunchalari o'zaro farq qiladi: gap modeli mohiyat hisoblansa, gapning nutqdagi ko'rinishi hodisadir. Shunisi ham borki, dialektikaning mohiyat va hodisa tushunchalari biri boshqasi bilan aloqador, biri boshqasining (sababning) natijasi bo'lgani kabi, gap modeli va uning realizatsiyasi ham o'zaro aloqador hodisalardir. Gap modeli imkoniyat bo'lsa, uning realizatsiya ko'rinishlari voqelikdir.

T.P.Lomtev gap modelini quyidagicha izohlaydi: «...gap modeli shunday andozaki, bu andozada faqat muayyan bir gap emas, son – sanoqsiz konkret gaplar tuziladi. Gap modeli ma'lum farqlar bilan ko'zga tashlanuvchi shakliy mazmunga ega bo'ladi, ularda «predmet»lar va ular struktur elementlarining umumiy xarakteri aks etadi.»¹

Gap zimmasidagi predmet (mantiqiy valentlik yoki informatsiya mazmuni) va predikat tushunchalari keskin farq qiladi. Predikat gapdagi informatsiya mazmuni (mantiqiy valentlik)ni o'zida tashuvchi va uni ifodalovchi (yetkazuvchi) lisoniy – mantiqiy tushunchadir. Bir (mushtarak) informatsion mazmun (mantiqiy valentlik) har xil lisoniy shakllarda ifodalanishi mumkin. Bunday xususiyatni *Karima kiyindi* va *Karima kiyimlarini kiydi* gaplarini qiyoslash orqali oson

¹ Ломтев Т.П. Принципы построения формулы предложения. НДВШ. Сер.филол.наук. – 1972, №5, - с.67

tushunish mumkin. Bu gaplarda bir (mushtarak) informatsion mazmun har xil predikatlar yordamida shakliy tus olgan.

Gaplar predikatlarining miqdoriga ko'ra farqlanadi, ayrim gaplarda u birdan ortiq bo'ladi. Unga kommunikativ ahamiyat kasb etuvchi ustama predikatlar tirkalgan bo'ladi. Birdan ortiq predikatli gaplarda ulardan biri yetakchi hisoblanadi. Predikatlarning ko'pligi informatsiyaning mukammalligini belgilaydi. Shuning uchun gapda predikatlarning kamayishi informatsiya qismlarining kamayishiga sabab bo'ladi.

Predikatlar transpozitsiya yo'li bilan barham topadi. Predikat va gap mutanosib tushunchalar bo'lgani uchun, transpozitsiya tufayli gap murakkab nomga – deskriptsiyaga aylanadi. Bunday jarayonda gapning sintaktik shakli o'zgaradi – infinitiv oboroti tusini oladi. *O'quvchi kitobni qo'ligi oldi – o'quvchining kitobni qo'lga olishi* kabi. Gap transpozitsiyasi tufayli sintaktik qiyofadan tashqari, semantik qiyofa ham o'zgaradi. Bunday jarayonda predikatning ma'nosi barham topib, mavhum otlarga xos semantik qiymat hosil bo'ladi.

Transpozitsiya vositasida hosil bo'lgan qurilmalar nominalizatsiya natijasi hisoblanadi. Bu jarayonda depredikatsiya (predikatning inkor etilishi) hodisasi amal qiladi. Gapning nominalizatsiyalashish jarayoni depredikatsiyalashuv jarayoni bilan mutanosib xarakterda bo'ladi: predikativ qiymat qanchalik kamaysa, nominalizatsiya shunchalik ko'payadi. Bunday qurilmalar «predikativlik belgisini yo'qotib, nominalizatsiyalashganligi tufayli gaplik belgisiga ega bo'lmaydi».¹

Gapni modellashtirishda gap tarkibining predikat predmetlari va predikat predmetlari munosabatlarini ifodalovchi

¹ Усмонова Х. Дескрипция (мураккаб ном) ва унинг гап тузилишидаги ўрни. Филол.фанлари.номз.дисс.....автореф. – Тошкент, 1994, 20-б.

soʻz shakllari va ularning xususiyatlari hisobga olinadi. Shuning uchun ham yuqorida gap modellarining shakliy mazmunida predikat predmetlari va ularning munosabatlari, ularni ifodalovchi unsurlarga eʼtibor berilishi lozimligi aytilgan edi.

Konkret olingan gaplar fikr ifodalab, obyektiv borliq narsa – hodisalari va ularning oʻzaro munosabatlarini ifoda etgani (mazmunga egaligi) kabi, gapning struktur sxemasi, yaʼni modeli ham lisoniy ideal shakl sifatida maʼlum bir maʼnolar bildiradi. Gap modellarida ifodalangan maʼnolar oʻta umumiy boʻlib, shu modelda reallashuvchi (voqelanuvchi) son – sanoqsiz gaplar ushuni mushtaraklik kasb etadi. Gap modellarida ifodalangan maʼnolar tipik maʼnolar deyiladi. G.A.Zolotova gap modeli sintaktik shakllarning oʻzaro munosabatidan tashkil topgan minimal qoʻshilish deb izohlab, uni gapning predikativ asosiga tenglashtiradi. Predikativ asos yoxud gap modeli tomonidan lozim boʻlgan tipik maʼnoni «gap modelining mazmuniy – struktur komponentlarining predikativ xarakterda birikuvidan hosil boʻlgan fikriy hosila» sifatida izohlaydi.¹ Tipik maʼnolar, odatda subyekt va uning harakati (*Oʻquvchi yozyapti, Bola toshni uzoqqa otdi*), subyekt va uning belgi – xususiyati (*Bu kitob qiziqarli, Bizning maktab ilgʻor*), subyekt va uning holati (*Bola uxlati. Otam dam olmoqda*) tarzida shakllanadi.

Gapning semantik strukturasi tipik maʼnolardan tashqari, uning denotativ qurilishiga asoslangan situativ maʼno, gapning kommunikativ qurilishi bilan bogʻliq nominativ maʼno va nihoyat, gap tipik maʼnolari bilan bogʻlanuvchi fikriy informatsiya kabi komponentlar mavjuddir. Fikriy informatsiya, garchand tipik maʼnolar bilan chambarchas bogʻlansa – da, ularni (tipik maʼno va fikriy informatsiya) oʻzaro tenglashtirib boʻlmaydi. Fikriy informatsiya fikriy munosabat deb ham ataladi.


¹ Золотова Г.А. Очерк функционального синтаксиса русского языка. – М.: Наука, 1973. – с.25

Bunday munosabatlar har xil soʻz shakllarining sintagmatik munosabatidan vujudga keladi. Fikriy munosabat (fikriy informatsiya)lar ham, yuqorida qayd etilganidek, gapning semantik qurilishida oʻziga xos komponent maqomiga ega. Fikriy munosabatlar oʻrni bilan gapning kommunikativ maqsadini belgilash uchun xizmat qiladi. Masalan, *Otam bir vazifada qirq yil ishladi* gapida tipik maʼno subyekt va uning harakati sanalsa, *otam ishladi*, shu gapning fikriy informatsiya (fikriy munosabat) asosini quyidagi komponentlar tashkil qiladi: a) harakatning amal qilish obyekti (bir vazifada ishlamoq); b) harakatning amal qilish vaqti (zamoni) – qirq yil ishladi. Demak, *Otam bir vazifada qirq yil ishladi* gapining semantik strukturasi, uning nominativ kommunikativ komponentini hisobga olmaganda, quyidagi uch tarkibiy qism mavjud: a) subyekt va uning harakati; b) harakatning amal qilish obyekti; v) harakatning amal qilish vaqti. Shularning ichida faqat bir semantik komponentgina (*otam ishladi*) gap semantik strukturasi tipik maʼnosini ifoda etgan. Bu maʼno esa *Otam bir vazifada qirq yil ishladi* gapi modelining maʼnosidir.

Gap modeli koʻp hollarda konstruksiya atamasi bilan sinonimlashadi: gap modelining maʼnosi deyilganda gap konstruksiyasining maʼnosi ham anglashilaveradi. Sintaktik sathda semantikaning vazifasi gap maʼnolarini tasvirlashdan iboratdir. Gap maʼnolarini tasvirlash ana shu maʼnolarga ega boʻlgan sintaktik konstruksiyalarning maʼnolarini tasvirlash orqali amalga oshadi.¹

Xullas, gap modeli masalasi gap sathining turli bosqichlariga koʻra maxsus va alohida – alohida tadqiqotlarni talab qiluvchi metatil hodisasi. Bu masalani oʻzbek tili gaplari misolida oʻrganish gap haqidagi nazariy qarashlarimizni boyitadi, sintaksisni yangi ilmiy xulosalar hisobiga mukammallashtiradi.

¹ Корельская Т. Д. О формальном описании синтаксической синонимии. – М.: Наука, 1975, - с. 6



Gapning til belgilariga munosabati masalasi

Til belgilar sistemasi sifatida semiotikaga daxldor hodisalardan biri hisoblanadi. F. de Sossyur insonning kommunikativ ehtiyoji bilan bog'liq bo'lgan faoliyatini aks ettiradigan tilni o'rganuvchi fan semiotik fanlar sirasiga kirishi kerakligini isbotladi. U til belgilarining xususiyatlarini izohlaganda, ularning narsa va nomlarni emas, balki tushuncha va shu tushunchani ifodalovchi tovush qobiqlarini bog'lashini alohida uqtiradi, ya'ni til belgilari tushuncha va akustik obrazlar (timsollar) summasidan tashkil topadi. Belgilar tilga taalluqli hodisalar bo'lib, ular shakl va mazmun planlariga ega. Belgilarning shakliy planlarini akustik timsollar (tovush qobig'i) tashkil etsa, ularning mazmun planlarini ana shu akustik simvollar (tovush qobig'i) zimmasidagi tushunchalar tashkil etadi. F. de Sossyurning e'tirof etishicha, belgilar sof lisoniy hodisalar bo'lgani uchun ularning ifoda – shakliy (tovush qobig'i) tomoni ham, mazmun – ifodalanuvchi (tushunchalar) tomoni ham psixik xarakter kasb etadi va xotirada saqlanadi.¹

F. de Sossyurning til belgilari haqidagi qarashlari til va nutqni bir – biri bilan bog'liq bo'lgan farqli hodisalar sifatida tasvirlashda qo'l keladi. Til va uning birliklari imkoniyat sifatidagi hodisalar bo'lgani uchun ham unga mavhumlik xosdir.

Darhaqiqat, belgi va tushuncha (ma'no) munosabati semiotika va lingvistika fanlarining markaziy tushunchalari hisoblanadi. Semiotikaning asoschilaridan biri Ch. Pirs o'zining belgilar tipologiyasi haqidagi ta'limotida belgilarning turlaridan biri sifatida simvol – belgilarni ko'rsatadiki, ayni shu narsa tilshunoslik fanining o'rganish obyektiga daxldordir. E'tirof etilishicha, belgining bu turi, ya'ni simvolik belgilar narsa va hodisalar bilan hech qanday bog'liqlikka ega bo'lmaydi. Ular sharhlanish (interpretatsiya)ga muhtoj bo'ladi. Bunday simvolik

¹ Засорина Л.Н. Введение в структурную лингвистику. – М.: Высш.шк.1974,с.56-62

belgilarning narsa – hodisa (obyekt)lar bilan bog‘lanishi shartlidir. Belgilar, albatta, sharhlanishi zarur, aks holda, ularning belgiligi barham topadi. Bunday belgilar lisoniy xarakter kasb etadi. Shuning uchun har qanday so‘z (lug‘aviy birlik) simvoldir, har qanday gap – simvol.¹

V.B.Kasevich tilni belgilar va ularning funksiyaga kirishish qoidalari sistemasi tarzida tushungan holda, belgilarga, eng avvalo, morfema va so‘zlarni kiritadi. U belgilar hosil bo‘lishi qoidalarining ikki tipini ko‘rsatadi: a) belgilar sintaksisiga daxldor qoidalar; b) belgilar pragmatikasiga daxldor qoidalar. Sintaktika har xil belgilarning o‘zaro birikish usullari haqidagi qoidalar sistemasi bo‘lsa, pragmatika shaxsning ma‘lum bir maqsad (vazifa)ni ko‘zda tutgan holda belgilarni qo‘llashi, unga munosabati haqidagi qoidalar sistemasidir.²

Til belgilarining sintaktik aspekti gapda so‘zlarning o‘zaro birikuv qoidalari. So‘zlarning qo‘shilishi, unda qismlarning tartibi ma‘lum bir ma‘nolarni ifoda etadi, masalan *tekis* va *yo‘l* so‘zlarining har xil tartibda qo‘shilishidan har xil xarakterdagi, har xil ma‘nodagi belgilar hosil bo‘lishi mumkin: a) *tekis yo‘l* (so‘z birikmasi, predmet va uning atributiv xarakterdagi belgisi); b) *yo‘l tekis* (gap, predmet va uning predikativ xarakterdagi belgisi).

Til belgilarining pragmatik aspekti, odatda, stilistikaga aloqador bo‘ladi. Masalan, «shayton» so‘zi uslubiy maqsadlarda insonlarga nisbatan ishlatilishi mumkin yoki biror bir gap hamda uning ichki qismlaridan birining tartib o‘zgarishi so‘zlovchining nutq obyektiga bo‘lgan har xil munosabatlarini ifodalaydi.

Bu yerdan ko‘chib keting gapini *Ko‘chib keting bu yerdan* (A. Qahhor) tarzida o‘zgartirish so‘zlovchining tinglovchiga bo‘lgan munosabatini yana ham kuchaytirgan, tinglovchi tomonidan amalga oshirilishi zarur bo‘lgan xatti – harakatning mutlaqligi va kechiktirilmasligi ma‘nosi ifodalangan. Bunday

¹ Новиков Л.А. Семантика русского языка. – М.: Выс.шк., 1982, - с. 57-58

² Касевич В.Б. Элементы общей лингвистики. – М.: Наука, 1977, - с. 17

vazifaviy xususiyatlar belgilarning pragmatik tomoniga taalluqli jihatlardir.

Belgining o'zi atagan obyektga (keng ma'noda) munosabati muhim ahamiyatga molik alohida hodisadir. Belgi atagan (ifodalagan) obyekt belgi denotati yoki belgi referenti deb yuritiladi. Belgi denotati va referenti bir jinsdagi narsa – hodisalarning ko'pligi (uyushmasi)ga teng keladi. Masalan, *kitob* shu jinsdagi barcha predmetlarning belgili birligidir.

Tilshunoslik fani til belgilari va ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi. Belgi orqali ifodalangan obyekt, ya'ni denotatlar uning o'rganish obyektiga kirmaydi.

Fanda belgilar keng va tor ma'nolarda ishlatiladi. Keng ma'noda ular sistemasiga fonemalar, morfemalar, sintaksemalar ham kiritiladi. Tor ma'noda qaralganda, til belgisi sifatida faqat so'z tan olinadi.

Biz belgiga keng ma'noda qarash tarafdorimiz. Mavjud manbalarda belgiga gap va gaplar ham kiritiladi. Keng ma'noda qaralganda, belgilar turli xususiyatlari asosida tasnif qilinadi. Chunonchi, A.A.Ufimtseva, F.M.Berezin, B.N.Golovinlarning tadqiqotlarida gap ham belgilar sistemasida qaralib, belgilarning umumiy tasnifi beriladi. Xususan, A.A.Ufimtseva til belgilarining o'zidan boshqa belgilar hosil qila olishi, fikr ifodalay olishi (ifodalay olmasligi), nutqiy situatsiyaga aloqador bo'la olishi – bo'la olmasligi, boshqa belgilarni o'zida mujassamlashtira olishi – mujassamlashtira olmasligi xususiyatlari asosida tasnif qiladi. Gapni nutqiy vaziyatga aloqador bo'lgan va tilning boshqa (gapdan boshqa) belgilarini ham o'zida mujassamlashtira oladigan ramziy birlik sifatida ajratadi. F.M.Berezin va B.N.Golovinlar til belgilarini ham ularning quyidagi uch xususiyati asosida tasnif etadilar: 1) farqlash vazifasi; 2) tilning boshqa belgilarini hosil qila olish vazifasi; 3) tasniflash vazifasi. Ayni paytda, tilning ma'lum bir belgilarining polifunksional xarakterini ham ko'rsatib berishadi.

Fikr objekti va uning elementlariga munosabat

masalasida ham belgilar har xil funksional qiymat kasb etadi. Bunday funksional qiymatning muhimlari sifatida belgilar quyidagicha guruhlanadi: nominativ vazifa, deyktiv vazifa, ekspressiv vazifa, signifikativ vazifa, modellashtiruvchi vazifa, pragmatik vazifa. Til belgilari zimmasidagi bu vazifalarning har biri alohida – alohida tekshirish obyektlari hisoblanadi. Bularning hal etilishi semantik tilshunoslikning dolzarb muammolarining mushtarak yechimiga sababchi bo'lishi shubhasiz.

Belgilarning tuzilish (struktur) tiplari va har bir tipga xoslangan vazifalari orasida ma'lum bir mantiqiy aloqalar mavjud.

To'liq bo'lmagan (to'liqsiz) belgilar (morfemalar, so'zlar) farqlash va o'zidan yirik sath belgilarini hosil qilish vazifasini bajaradi. Qisman to'liq (noto'liq) belgilar esa tasniflash va belgi hosil qilish vazifalarini bajaradi. To'liq belgilar polifunksional semiotik birliklar hisoblanib, konstruktiv (hosil qilish), nominativ, deyktiv, ekspressiv va signifikativ vazifalar bajaradi. Quyi sathlarga xos belgilarni uyushtiruvchi, ularning summasidan tashkil topgan kompleks belgilar (odatda, bular jumlagi to'g'ri keladi) ham polifunksional tavsifda bo'lib, kommunikativ, modellashtiruvchi (borliq narsa – hodisalarining abstrakt tarzda in'ikos etilishi) va pragmatik vazifalar bajaradi.¹

Bu o'rinda fonemaning belgi maqomida berilishi bir oz e'tirozlidir. Chunki har qanday belgi, F. de Sossyur qayd etganidek, shakliy va mazmuniy planlarga ega bo'lishi va psixik xarakter kasb etishi shart. Fonemalar masalasiga kelsak, unda faqat shakliy (ifodalovchi) tomon bo'lib, ifodalanuvchi – mazmuniy tomon mavjud emas. Ana shuning ushuni fonemalarning belgi sifatida qaralishi e'tirozlidir. Lekin ularning belgisi birliklar hosil qilish, belgilar tarkibining shakliy qismlari vazifasini bajarish xususiyatini hech kim inkor etmaydi.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladi, belgi atamasi keng

¹ Березин Ф.М., Головин Б.Н. Общее языкознание. – М.: Просвещение., 1979, - с.119

ma'noda ishlatilib, morfema, so'z, gap va gapdan yirikroq sintaktik butunliklarga nisbatan qo'llanadi.

E'tirof etilishicha, gapda ham tilning boshqa belgilarida bo'lgani kabi, ifodalovchi va ifodalanuvchi qutblar mavjud. Gaplarning ifodalovchi tomonini lug'aviy qobiqqa ega bo'lgan shakliy tuzilishi, ifodalanuvchi tomonini obyektiv borliqning ma'lum bir parchasini in'ikos etgan tipik vaziyat tashkil etadi. Tipik vaziyat (G.A.Zolotovada: tipik ma'no) gapning mantiqiy mazmunini tashkil etuvchi propozitsiyaga teng keladi. Propozitsiya obyektiv borliq bilan bog'langan voqeaning nomi hamdir. Shu jihatdan qaraganda, propozitsiya – tipik vaziyat ifodalanishiga ko'ra, gap nominativ vazifa ham bajaruvchi kommunikativ birlikdir. Bunday ma'no va vazifalar gapga xos belgining ifodalanuvchi (mazmun) tomoniga mos keladi. Gapga xos belgining bu xususiyatlari professor A.Nurmonov va professor N.Mahmudovlar tomonidan ham e'tirof etiladi.¹

Tipik vaziyat (propozitsiya) nolisoniy borliqdagi ba'zi voqea – hodisalarning inson lisoniy ongida shakllangan tasavvuridir. Bunday tasavvur signifikativ ma'no deb ham ataladi. Gapga xos belgilarning ifodalovchi va ifodalanuvchi tomonlarini belgilash va ularni ajratib ko'rsatish nazariy sintaksisning asosiy masalalaridan biri hisoblanadi.²

Gap – ko'p tomonlama murakkab hodisa. Bu hol gapning ko'p sathli ekanida ham namoyon bo'ladi (gapning mantiqiy – mazmuniy sathi, gapning grammatik sathi, gapning nominativ sathi, gapning kommunikativ sathi, gapning pragmatik sathi va h.k.). Ularning ayrimlari o'zaro ikki jabhaga birikadi. Bulardan biri statik (sintaktik), ikkinchisi dinamik (kommunikativ) sath deb yuritiladi. Statik (sintaktik) sath gapni til hodisasi sifatida xarakterlasa, dinamik (kommunikativ) sath uni nutq hodisasi

¹ Нурмонов А., Махмудов Н., Ахмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Т.: Ўқитувчи. 1992, 119-б; Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Т., 1995, 108-б.

² Колшанский Г.В. Некоторые вопросы семантики языка в гносеологическом аспекте//Принципы и методы семантических исследований. – М., 1976.

sifatida xarakterlaydi.¹ Til sathiga xos gap bilan nutq sathiga xos gaplar ham shakliy (ifoda) planiga, ham mazmuniy (ifodalanuvchi) planiga ko'ra farq qiladi. Til sathiga xos gaplar til birligi sifatida qaralsa, nutq sathiga xos gaplar nutq birligi sifatida tavsiflanadi. Til birligi xarakteridagi gaplarning shakliy – ifodalovchi tomonini uning (gapning) modeli tashkil qiladi, mazmun – ifodalanuvchi tomoni esa signifikatga teng keladi. Signifikativ ma'no ma'lum bir konkret ma'no (mazmun) ifodalovchi sintaktik konstruksiyalarning ma'nosidir. Demak, signifikat gap modeliga xos ma'nodir.

Signifikat xarakteridagi semantik birlik G.A.Zolotova e'tirof etgan tipik ma'nolarga yaqinlashadi. Dinamik, kommunikativ sathga xos gaplar nutq birligi sifatida tavsiflanib, jumla deb ham yuritiladi. Bunday semantik – sintaktik birliklarning shakliy – ifodalovchi tomonini konkret so'z shakllari va ularning o'zaro munosabatlari tashkil qiladi. Ularning ifodalanuvchi (mazmuniy) tomonini nutq vaziyatining konkret denotatlari va ularning o'zaro munosabati tashkil qiladi. Bunday hollarda gap aniq bir informatsiya tashish vositasiga aylanadi. Mazkur jarayonda gap ham, uning tarkibiy qismlari ham aniq konkret ma'nolarga ega bo'ladi. Masalan, *Bola daraxtga chiqdi* gapini til va nutq birligi sifatida ko'zdan kechiraylik. Bu gap ega+to'ldiruvchi+kesim modelida vujudga kelgan. Shu jihatdan qaraganda, bu gap *Qush shoxga qo'ndi*, *Temir toshga urildi* va h.k. o'nlab, yuzlab gaplardan farq qilmaydi, chunki son – sanoqsiz bunday gaplar ham «ega+to'ldiruvchi+kesim» modeliga ega. Ana shu modelda subyekt va uning ma'lum bir obyekt bilan bog'liq ish – harakati ma'nosi (tipik ma'no) ifodalangan. *Bola daraxtga chiqdi* gapi bilan bog'liq bu xususiyatlar mazkur gapni til hodisasi sifatida xarakterlash ushun xizmat qilgan. *Bola daraxtga chiqdi* gapini nutq birligi sifatida ko'zdan kechirganimizda, boshqa holat ko'zga tashlanadi. U konkret

¹ Асқарова М., Бердиалиев А. Гапнинг тил – рамз ишораларига муносабати ҳақида// Туркий тилларнинг тараққиёти муаммолари. – Т., 1995.

lug'aviy birliklar (*bola, daraxt, chiqmoq*)dan tashkil topgan. Bu lug'aviy birliklar shu gapning nominativ, denotativ tarkibiy qismlari sifatida uni *Qush shoxga qo'ndi, Temir toshga urildi* gaplaridan farqlash ushuni xizmat qilgan, uni induviduallashtirgan. *Bola daraxtga chiqdi* gapi tarkibidagi *bola, daraxt, chiqmoq* so'zlari kontekstdan tashqarida qaraluvchi *bola* (umuman), *daraxt* (umuman), *chiqmoq* (umuman) so'zlaridan farq qiladi. Kontekst ixtiyoridagi *bola, daraxt, chiqmoq* so'zlari ma'lum bir nutqiy vaziyatda obyektiv borliqning ma'lum bir tarkibiy qismini lisoniy shaklga olib kirayotgan konkret shaxs (*Alimi, Ahmadmi, Karimmi* va h.k.), konkret daraxt (*tolmi, terakmi, yong'oqmi*) va konkret harakat ma'nolarini ifodalayotir. So'zlovchi nutq vaziyatidagi ana shu jarayonni ko'zi bilan ko'rib, so'ngra uni nutq materialiga aylantirgan. Bolaning aniq xatti – harakati bilan bog'lanuvchi ana shu jarayon nutq birligi sifatidagi *Bola daraxtga chiqdi* gapining konkret ma'nosi (mazmuni, propozitsiyasi)dir. Nutq vaziyatidagi mazkur jarayon nutq birligi xarakteridagi bu gapning ifodalanuvchi tomonini tashkil etgan. Demak, gapning konkret nutq vaziyati bilan bog'liq bo'lgan ma'nosi uning kommunikativ – dinamik aspektiga xos ma'nodir.

Belgining yuqorida aytilganidek, mazmun (ifodalanuvchi) tomonini denotat va designat atamaları bilan yuritiladi: belgi denotati, belgi designati kabi. Belgi designati lisoniy belgida in'ikos etiladigan ma'nodir, denotat orqali esa ana shu ma'no bilan tavsiflanuvchi predmet va predmetlar majmuasi tushuniladi. Masalan, *kitob* – so'z belgisining denotati ma'lum bir mundarijaga ega bo'lgan, yozuvli qog'ozlarning ma'lum tartibda joylashtirilib, muqovalangan predmet (yoxud predmetlar) sanalsa, uning designati ta'lim olish, hordiq chiqarish maqsadi uchun xoslangan o'quv quroli ekanligidir. Belgi denotati, belgi designati gap tipidagi birliklarda ham mavjud. So'z – belgilarda ularning denotat va designatlari farq qilganidek, gap – belgilarda ham ularning denotat va designatlari farq qiladi. Til belgilarining (ayniqsa, gap – belgilarining) shakliy – sintaktik jabhasi bilan

mazmuniy – semantik jabhasidagi, denotativ asoslari bilan designativ xususiyatlari o‘rtasidagi nomutanosibliklar tilning mazmun plani bilan ifoda plani o‘rtasidagi nomutanosibliklarning o‘ziga xos ko‘rinishi sanaladi va fan uchun katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu masala, aniqrog‘i, belgi sifatidagi gapning ifoda va ifodalanuvchi tomonlari bilan bog‘liq masala haqida keyinroq yana alohida to‘xtalamiz.

Xullas, til va undagi hodisalarning belgi sifatidagi muammosi hozirgi davr tilshunosligining dolzarb va markaziy masalalaridan biri sifatida qaraladi. Masalaga gap va uning belgilik nuqtai nazaridan yondashadigan bo‘lsak, yana aytilish mumkinki, bu muammoning hal etilishi sintaktik semantika muammosining mushtarak hal etilishi demakdir.

Gap qurilishida sintagmatik va paradigmatik nomutanosiblik hamda polisemiya

Sintaktik birliklar (so‘z birikmalari va gaplar) ning sintaktik-semantik nomutanosibligi tildagi shakl va mazmun nomutanosibligining o‘ziga xos ko‘rinishi hisoblanadi.

Shakl va mazmun o‘zaro bog‘liq bo‘ladi, uning birida vujudga kelgan muammo boshqasida ham boshqa bir muammoga turtki bo‘ladi.

H. Ne‘matov va R. Rasulov shakl bilan mazmunning o‘zaro bog‘lanishini ikkilamchi sun‘iy hamda birlamchi ijtimoiy-an‘anaviy kabi ikki guruhga ajratadilar. Matematik belgilar bilan ular ifodalagan mazmun, harflar bilan tovush va fonemalar, yo‘l belgilari bilan ular anglatgan mazmun va hokazo orasidagi bog‘lanish ikkilamchi sun‘iy bog‘lanishga kiritilgan. Tilga xos shakl va mazmunning ijtimoiy-an‘anaviy bog‘lanishi birlamchi ijtimoiy-an‘anaviy bog‘lanish hisoblanadi. Ana shunday birlamchi ijtimoiy-an‘anaviy bog‘lanishlar ramz (belgi)larga nisbatlanib, tilga ana shunday ramzlar tizimi sifatida baho

beriladi. Yana shu narsa e'tirof etiladiki, sun'iy (ikkilamchi) bog'lanishlarda shakl va mazmun bog'lanishi mutanosib (ya'ni bitta shaklga bitta mazmun to'g'ri keladi) bo'lsa, tilga xos birlamchi ijtimoiy-an'anaviy bog'lanishlarda shakl va mazmun birliklari hamma vaqt ham mutanosib bo'lavermaydi. Tildagi shakl va mazmun nomutanosibligining sababi sifatida til belgilarining mohiyati oddiygina shakl va mazmun bog'lanishi bilan emas, balki paradigmatic va sintagmatik munosabatlar orqali aniqlanadi.¹

Shakliy va mazmuniy mutanosiblik yoxud nomutanosiblik tushunchalarini tilning sintaktik sath hodisalari misolida ham yaqqol ko'rish mumkin. Ma'lumki, sintaktik sathda gap markaziy va asosiy birlik hisoblanadi. Gaplarning ham shakliy va mazmuniy tomonlari mavjud. Gaplarning shakliy tomoni ularning «grammatik imkoniyati», mazmuniy tomoni «mazmuniy imkoniyati» deb ham ataladi (Y.Kachala). Umuman, gapning «imkoniyati» tushunchasi gap ko'rinishlarining ikki tomoni tarkibiy birliklari (grammatik va semantik birliklar)ning o'zaro munosabatlari bilan bog'lanadi. Unda fikr predmeti (substansiyasi) ma'nosidagi nom gapda grammatik ega vazifasini bajarsa, fikr predmetining harakatini bildirgan nom gapning kesimi vazifasida ishlatiladi va ana shu ikki element yordamida gapning grammatik yadrosi ifodalanadi.

Gapning grammatik vositalar yordamida qurilishi bilan bog'liq sathi haqida gap borganda, uning grammatik imkoniyati tushuniladi. Ana shu grammatik qurilish va uning tarkibiy qismlari orqali ro'yobga chiqadigan semantik vositalar haqida fikr yuritish gapning semantik imkoniyati haqida fikr yuritish demakdir.² Xullas, qanday atalishidan qat'i nazar, gapning grammatik vositalar yordamida tuzilishi uning shakliy tomonini belgilasa, gap tarkibining ana shu grammatik vositalari orqali

¹ Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. –Т., «Ўқитувчи», 1995. 32-33-б.

² Качала Я. О грамматической и семантической перспективе предложения//Проблемы теории грамматического залога. –Л., 1978, -с.87-88,

yuzaga chiqadigan semantik tuzilishi uning mazmuniy tomonini belgilash uchun xizmat qiladi.

Falsafaning shakl va mazmun birligi, shakl va mazmun birliklarining mutanosibligi yoxud nomutanosibligi tushunchalari, ana shu tushunchalar bilan bog'liq qonuniyatlar til hodisalari, xususan, gap uchun ham xosdir. Sintaktik qurilmalar, xususan, gaplarga xos shakl va mazmun nomutanosibligini yuzaga keltiruvchi asosiy omillar ikki xil bo'ladi: 1) paradigmatic mutanosiblik; 2) sintagmatik mutanosiblik.¹

Gapga xos shakl va mazmun sintagmatik mutanosibligi yoxud nomutanosibligi tushunchalarini bilishdan oldin gap grammatik (shakliy) tuzilishining tarkibiy qismlari va ularning tabiati bilan tanishishga to'g'ri keladi. Gapning sintaktik tuzilishida ikki qism ishtirok etadi: a) funksional qism; b) taksonomik (nofunksional) qism.

Funksional qism gap tarkibining shakliy qiymat (vazifa) tashuvchi, uni ifoda etuvchi sintaktik hodisalardir. Bunday vazifa sodda gaplarda gap bo'laklari, qo'shma gaplarda biri boshqasini taqozo etuvchi predikativ qismlar tomonidan bajariladi (so'z birikmalarida uning tobe va hokim qismlari). Masalan: *Mehnatdan do'st ortadi* (Maqol) gapining grammatik (shakliy) qurilishida chiqish kelishigi *mehnatdan*), bosh kelishik (*do'st*) shaklidagi otlar va aniq nisbat shaklidagi hozirgi-kelasi zamon fe'li (*ortadi*) ishtirok etgan. Ularning barchasi gap sintaktik qurilishida ma'lum bir qiymatga ega: *mehnatdan* leksemasi (so'z shakli) to'ldiruvchi, *do'st* so'z shakli ega, *ortadi* so'z shakli kesim vazifasini bajargan. Ayni shu gap tarkibidagi shakliy-sintaktik qiymat kasb etgan so'z shakllari (keng ma'noda: grammatik vositalar) mazkur gap grammatik qurilishining taksonomik birliklari vazifasini ham bajargan: funksional birliklarning har biri alohida-alohida taksonomik birliklarga teng kelgan (yoki to'g'rirog'i, taksonomik birliklar funksional

¹ Гак В.Г. Теоретическая грамматика французского языка. Синтаксис. -М.: Высш.шк., 1981.

birliklarga teng kelgan). Taksonomik birlik tushunchasi gap grammatik qurilishining shunday elementlariki, ular gapning (boshqa sintaktik butunliklarning ham) o'ta elementar, o'ta mayda «tashkil etuvchi»laridir. Gap tarkibining affiksial morfemadan yirik har qanday qismi taksonomik birlik sanalaveradi. Masalan, *Atrof baland tog'lar bilan o'ralgan* (O. Yoqubov) gapida besh taksonomik birlik mavjud: *atrof, baland, tog'lar, bilan, o'ralgan*. Shu besh taksonomik birlikda gapning to'rt funksional birliqi shakllangan: ega (*atrof*), kesim (*o'ralgan*), aniqlovchi (*baland*), to'ldiruvchi (*tog'lar bilan*). *Pichanzor sovuq shudring bilan yuvilgan* (O. Yoqubov) gapida ham yuqoridagi holatni kuzatish mumkin. Yoki *Milliy tilni yo'qotmoq millatning ruhini yo'qotmoqdir* (A. Avloniy) gapiga e'tibor beraylik. Bu gap olti taksonomik birlikdan tuzilgan: *milliy, tilni, yo'qotmoq, millatning, ruhini, yo'qotmoqdir*. Shu olti taksonomik birlik gapning sintaktik qurilishini shakllantirgan. Unda atigi ikkita funksional birlik mavjud, xolos: ega (*milliy tilni yo'qotmoq*) va kesim (*millatning ruhini yo'qotmoqdir*).

Bunday xususiyatni so'z birikmalari va qo'shma gaplar misolida ham ko'rsa bo'ladi. Lekin so'z birikmalari va qo'shma gaplarda ularning shakliy-sintaktik qurilishi bilan aloqador taksonomik yoki funksional birliklarining xarakteri sodda gaplarning sintaktik qurilishi bilan bog'liq taksonomik va funksional birliklaridan farq qiladi. So'z birikmalarida (ayniqsa, murakkab so'z birikmalarida) va qo'shma gaplarda ularning grammatik qurilishi falsafaning inkorni inkor qonuniga faol tarzda bo'ysunadi. Buni quyidagi misollar qiyosi orqali oson tushunish mumkin: *munchoqdek ko'z* va *munchoqdek qop-qora ko'z* (*Uning munchoqdek qop-qora ko'zlari jiqqa yosh edi* (Latif Mahmudov). Keltirilgan so'z birikmalarining birinchisi (*munchoqdek ko'z*) sodda so'z birikmasidir. U ikki taksonomik birlik (*munchoqdek, ko'z*) va ikki funksional birlik (*munchoqdek* – tobe qism; *ko'z* – hokim qism)ga ajraladi. Sintaktik butunlikning sintagmatik asosida bir sintaktik aloqa (bitishuv)

mavjud. *Uning munchoqdek qop-qora ko'zlari* murakkab so'z birikmasi *uning ko'zlari, munchoqdek ko'z, qop-qora ko'z* sodda so'z birikmalarining qo'shilishidan tashkil topgan. Bu murakkab so'z birikmasi ham ikki funksional qismga ajraladi: 1) tobe qism- *uning munchoqdek qop-qora*; 2) hokim qism- *ko'zlari*. Tobe qism uch taksonomik birlik (*uning, munchoqdek, qop-qora*)ni o'z ichiga olgan. Murakkab so'z birikmasi doirasidagi sodda so'z birikmalari tarkibida amal qilgan funksional qismlar inkor etilib, barham topgan. Ularning sintaktik aloqalari ham so'ngan. *Uning munchoqdek qop-qora ko'zlari* murakkab so'z birikmasining tarkibidagi funksional qismlarning taksonomik birliklarga aylanishi, taksonomik birliklararo sintaktik aloqaning «so'nishi» inkorni inkor qonunining til sintaktik birliklaridagi amaliy ko'rinishidir.

Ma'lum bo'ladiki, sintagmatik nomutanosiblikda biror bir so'z shakli boshqa bir so'z shakli bilan sintagmatik aloqaga kirib, butunlik hosil qiladi. Ana shu butunlik tarkibida qismlardan birining funksional qiymati inkor etiladi – barham topadi.

Sintagmatik nomutanosiblik uyushiq va ajratilgan bo'lakli, undalmali, kirish va kiritmali gaplar uchun ham xos bo'ladi. Bundan tashqari, ustama predikatsiyali gap qurilmalarida ham sintagmatik nomutanosiblik mavjuddir. Bunday qurilmalarda ham gap tarkibining shakliy – grammatik birliklari bilan semantik birliklari miqdori muvofiq bo'lmaydi.

Professor N.Mahmudov tomonidan sodda gaplarning semantik va sintaktik qurilishi bilan bog'liq nomutanosiblikning juda ko'p masalalari jiddiy o'rganilgan. Xususan, uning „O'zbek tilidagi sodda gaplarda semantik – sintaktik asimmetriya“ nomli monografiyasida kuzativli, qiyosiy sodda gaplar, shuningdek, ikkinchi darajali predikatsiya tufayli murakkablashgan sodda gaplarga xos nomutanosiblikning ko'rinishlari tahlil qilingan. Monografiyada yana shu narsa ta'kidlanadiki, asimmetrik strukturali sodda gaplarning mavjudligi tildagi tejamlilik tamoyilining namoyon bo'lishidir. Ortiqchalik tamoyili bilan

bog‘liq holatda sodda gaplarda semantik – sintaktik asimmetriya yuzaga kela olmaydi.¹

Biz tadqiqotchining fikrlarini to‘liq ma‘qullagan holda yana shu narsani e‘tirof etmoqchimizki, kuzatishlarimiz sodda gaplar doirasida ham ortiqchalik tamoyili bilan bog‘liq holatda shakliy – mazmuniy nomutanosiblik mavjud ekanini ko‘rsatdi. Bu xususda quyida maxsus to‘xtalamiz.

Sodda gaplar qurilishiga xos ortiqchalik bilan qo‘shma gaplarga xos ortiqchalik ortiqchalikni vujudga keltiruvchi ba‘zi omillarning mushtarakligi (masalan, monosubyektilik, polisubyektilik) xususiyatiga ko‘ra o‘xshash bo‘lsa-da, ular ko‘p hollarda farq ham qiladi. Sodda gaplarga xos ortiqchalik, ko‘pincha, gap sintaktik tuzilishida asemantik shakliy lug‘aviy birliklar hisobiga vujudga keladi. Asemantik shakliy birliklar vazifasini, odatda, pronominalizatsiya (olmoshlashish) jarayonini boshdan kechirayotgan lug‘aviy birliklar bajaradi. Masalan, *Ko‘p o‘qigan kishi ko‘p biladi*, gapida *kishi* so‘zi ortiqcha. Shu bois mazkur jumlani *Ko‘p o‘qigan ko‘p biladi* tarzida o‘zgartirish mumkin bo‘laveradi – gapning shakliy tomoni ixchamlashadi, lekin uning semantik hamda sintaktik qurilishida o‘zgarish yuz bermaydi.

Ortiqchalik tamoyili sintaktik qo‘shma gaplar doirasida faol amal qiladi. Darhaqiqat, *Tejamkor kishi zinhor qashshoqlikka tushmaydi* gapining sintaktik qurilmasi orqali ifodalanishi lozim bo‘lgan ma‘no *Kimki hayotda tejamkor bo‘lsa, u zinhor qashshoqlikka tushmaydi* (Hadisdan) gapining shakliy qurilmasi orqali ifodalangan. Muhimi yana shundaki, ortiqchalik belgisiga ega bo‘lgan keyingi qurilma ham til sintaktik sistemasida muhim va ahamiyatli hodisalardan biri sifatida tavsiflanadi.

Ega, kesim, to‘ldiruvchi, aniqlovchi va o‘rin ergash gapli qo‘shma gaplarda sodda gaplarda ham ifodalanishi mumkin

¹ Махмудов Н. Ўзбек тилидаги содда гапларда семантик – синтактик асимметрия. – Т.: «Ўқитувчи», 1984, б. 143

bo'lgan oddiy mazmun murakkab shaklda – polipredikativ qurilmalarda beriladi. Masalan, *Shunday inson haqida xabar keltirdimki, uning har bir so'zi bebaho gavhardir* (Oybek) gapi an'anaviy nomlanishdagi aniqlovchi ergash gapli qo'shma gapdir. Unda shaxs va uning belgi-xususiyati ma'nosi (signifikativ ma'no) ifodalangan. Shu gapni *Har bir so'zi bebaho gavhar bo'lgan odam haqida xabar keltirdim* tarzida monopredikativ shakl (sodda gap)da ham bersa bo'ladi. Qo'shma gap va sodda gap shakllaridagi bu ikki qurilmaning tipik ma'nolarida farq yo'q. Jumladan, bunday farq ularning denotativ birliklariga asoslangan mazmun (propozitsiya)larida ham sezilmaydi.

Tillarning taraqqiyoti ularning aniqlikdan mavhumlik tomon yo'nalishi orqali belgilanadi. Bunday jarayon tilning barcha sathlarida tejamkorlik tamoyilining kuchayishi va o'sishi bilan bog'liq bo'ladi.

Tejamlilik nazariyasi til taraqqiyotini belgilovchi ijobiy xarakterdagi ta'limotdir.

Lisoniy tejamlilik lisoniy ortiqchalikning zid tushunchasidir. Unda semantik butunlikning shakliy-grammatik birliklari uning ma'noviy-semantik birliklariga nisbatan kam bo'ladi. Aniqroq ta'bir bilan aytganda, gap semantik qurilishining ba'zi birlik (elementlari) gap grammatik qurilishida moddiy qiyofaga ega bo'lmaydi. Masalan, *Bolalik uyni bo'stonga, bolasiz uyni go'ristonga o'xshatadilar* (I. Rahim) gapining semantik qurilishida shu gapning predikati (*o'xshatadilar*) ma'nosidan anglashilgan holat ma'nosini o'zida tashuvchi subyekti (ish-harakat, holat bajaruvchisi) ma'noviy birligi ham mavjud, u noaniq tarzda umumlashgan uchinchi shaxsga teng keladi. Lekin mazkur ma'noviy birlik *Bolalik uyni bo'stonga, bolasiz uyni go'ristonga o'xshatadilar* gapining sintaktik qurilishida shakliy qiyofa bilan ifodalanmagan: gap tarkibining subyekt maqomidagi semantik-grammatik elementi shakliy jabhada tejalgan. Ayni ana shu xususiyatni *Nima eksang, shuni o'rasan* (Maqol) tipidagi boshqa gaplarda ham ko'rish mumkin. Shunga qaramasdan,

ma'lum bir nutq qamrovida ular gap hukmida qaralaveradi. Ma'lum bo'ladiki, tejamlilik sodda gaplar sathida bir bosh bo'lakli, uyushiq bo'lakli va to'liqsiz gaplarni o'z ichiga oladi.

Ayrim bog'lovchilar (masalan, teng bog'lovchilar) qatnashgan gaplarda ham tejamlilik hodisasini kuzatish mumkin. Chunki A.V.Suprun to'g'ri e'tirof etganidek, gap tarkibida bog'lovchi va miqdor bildiruvchi (kvantator) so'zlarning ishtiroki gap semantik qurilishini murakkablashtiradi. Bunday vositalar bir jumla doirasida bir necha semantik munosabatlarning qorishuviga sabab bo'ladi. Demak, tejamlilikda sintaktik butunlikning semantik (mazmuniy) tomoni murakkab, uning shakliy-grammatik tomoni oddiy bo'ladi. Bu fikrlar isbotini quyidagi gap misolida ham ko'rish mumkin: *Qattol urush davom etgan elning shoiri She'r bitadi hasratga yo g'azabga to'lib* (A. Oripov).

Bu gapda **yo** bog'lovchisi ishtirok etgan, u gap mazmunini murakkablashtirishga xizmat qilgan, chunki *Qattol urush davom etgan elning shoiri she'r bitadi hasratga to'lib*, *Qattol urush davom etgan elning shoiri she'r bitadi g'azabga to'lib* singari ikki alohida gapda berilishi lozim bo'lgan ikki fikr – ikki situativ birlik monopredikativ shakldagi bir qurilmada (sodda gapda) ifodalangan.

Bog'lovchilar eksplitsit ishlatilmagan gaplarda uning intonatsion qurilishi orqali ham murakkab fikr ifodalanib, tejamlilikka sabab bo'la oladi. Masalan, *Dono so'ziga, nodon o'ziga bino qo'yar* (Maqol) gapida ana shunday: garchand «esa» bog'lovchisi ishlatilmagan bo'lsa ham (buning o'zi ham tejamlilikdir) shu bog'lovchi tenglashish ohangi bilan nol shaklida markerlanib, gap mazmunini murakkablashtirgan. *Dono so'ziga bino qo'yar, nodon esa o'ziga bino qo'yar* tarzida polipredikativ shaklda berilishi lozim bo'lgan ma'nolar (propozitsiyalar) monopredikativ shaklda o'z ifodasini topgan.

U.Rahimov gap tarkibida presuppozitsiyaga ishora qiluvchi lisoniy vositalar ishtirok etsa, gap mazmuniy jihatdan murakkab bo'lishi haqida so'z yuritadi. Shu jihatdan, yuklamalar,

ko'makchilar, olmoshlar, atoqli otlar, antonimik juftliklar gap tarkibida presuppozitsiyaga ishora qilib, yashirin hukm anglatadi hamda mavjud gap bo'laklari orqali ifodalangan ochiq (eksplitsit) hukmga qo'shimcha tarzda yashirin (implitsit) hukm anglatib, o'zlari ishtirok etgan gaplarni mazmunan murakkablashtiradi.¹ Quyidagi misollarga diqqat qarataylik:

Faqat men yashayman o'ksinib. (A. Qutbiddin).

Bu gapda eksplitsit ifodalanmagan *Mendan boshqa hamma odamlar shod-xurram yashaydi* yashirin hukmi mavjud.

Burxon Sharif uyga yana hamma yog'i qon bo'lib qaytdi (O. Muxtor).

Keltirilgan gap, garchand shaklan ifodalanmagan bo'lsa ham, *Burxon Sharif ilgari ham uyiga bir necha bor hamma yog'i qon bo'lib qaytgan* implitsit hukmiga ega.

Demak, ma'lum propozitsiya gap orqali, oborotlar orqali, sodda gap tarkibidagi ayrim so'zlar va grammatik shakllar orqali ifodalanib, shu sodda gapni mazmunan murakkablashtiradi. Bu o'rinda presuppozitsiyaning roli benihoya katta. U yashirin propozitsiyaning so'zlovchi va tinglovchi uchun tushunarli bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tejamlilik qo'shma gaplarda ham mavjud. Ayniqsa, ko'p komponentli qo'shma gaplarda tejamlilik o'ta yuqori darajada bo'ladi. Murakkab qo'shma gaplar qurilmasida bir vaqtning o'zida ikki yoki undan ortiq har xil qo'shma gaplarning ma'no va grammatik xususiyatlari o'z ifodasini topadi.

Paradigmatik nomutanosiblik haqidagi dastlabki ma'lumot o'zbek tilshunosligida A. Berdialiyevning ishlarida uchraydi.² Paradigmatik nomutanosiblikda til birliklarining shakliy va mazmuniy nomutanosibligi o'ziga xos xususiyatlarga ega.

¹ Раҳимов У. Ўзбек тилида гапларнинг мазмуний мураккаблашуви//Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. Анъанавий Айюб Фуломхонлик материаллари. 2-чиқиш. –Андижон, 1995. 34 –бет.

² Бердиалиев А. Алишер Навоий насрий асарлари тилининг бир синтактик хусусияти ҳақида//Алишер Навоий. Илмий мақолалар тўплами. –Хўжанд, 1991, 40-45-бетлар.

Garchand paradigmatik nomutanosiblik atamasi ishlatilmagan bo'lsa – da, nomutanosiblikning bu turi S.O.Kartsevskiy, Y.D.Polivanov, R.A.Budagov, B.A.Serebrennikov singari rus; A.N.Nurmonov, N.M.Mahmudov, R.Sayfullayeva, R.Rasulov, M.A'lamova, S.Sultonsaidova, U.Rahimov singari o'zbek tilshunoslarining tadqiqotlarida ham ma'lum darajada e'tirof etilgan.

Paradigmatik nomutanosiblik sintaksisning barcha sath hodislarida mavjud. U gap bo'laklari sathida gapning noamaliy mavqedagi bo'laklari bilan bog'liq bo'ladi. Bu haqda R.Abdusamatov quyidagicha fikrni bildiradi: «Paradigmatik nomutanosiblik gap bo'laklarining funksional mavqega ega bo'lgan bo'laklaridan biri, ayni o'rinda ikki va undan ortiq sintaksemaga xos xususiyatlarni ifoda etadi. Masalan, *U maktabidan gapirdi* gapini ikki xil anglash mumkin: a) subyekt harakat – holatining ma'lum bir makonda voqe bo'lishi; b) subyekt harakat – holatining obyekt. Gap mazmunining bunday ikki xil tasavvur etilishiga «*maktabidan*» so'z shaklining polifunksional – polisemik sintaktik mavqei sabab bo'layotir. (*..Maktabidan gapirmoq: 1- maktabidan – makon, 2 – maktabidan – obyekt*). Ayni shu hol gap mazmun va ifoda jabhalarining nomutanosibligini vujudga keltirgan».¹

Yuqorida ortiqchalik va tejamlilik hodisalarining yonma – yon, izma – iz yurishi haqida fikr aytilgan edi. Ortiqchalik va tejamlilik hodisalarining bunday yondoshligi, izma – izligi paradigmatic nomutanosiblikda ham mavjud. Shakliy plandagi nomutanosiblikda shakliy birliklar ortiqcha bo'lib, mazmuniy (ma'noviy) birliklar tejaladi, mazmun planiga xos nomutanosiblikda mazmuniy birliklar ortiqcha bo'ladi.

Shakliy planga xos nomutanosiblik sinonimiya, parallelizm, dublet singari lisoniy tushunchalar bilan bog'lansa, mazmuniy planga xos nomutanosiblik polisemiya, omonimiya,

¹ Абдусаматов Р.А. Ўзбек тилида гап бўлакларининг ноамалий мавқеи масаласи. Филол.фанлари номзоди...дис.автореф. –Самарқанд, 1994, 18-бет

antonimiya, polifunksionallik, sinkretizm singani tushunchalar bilan aloqador bo'radi.

Paradigmatik nomutanosiblikning gap qurilishiga xos nomutanosibliги (uning qanday turda bo'lishidan qat'i nazar) haqida fikr yuritishdan oldin gap qurilishi, uning modeli masalalarini aniqlab olishga to'g'ri keladi. Chunki shakldoshlik xususiyatiga ko'ra vujudga keluvchi nomutanosiblikning ba'zi ko'rinishlariga ayrim tilshunoslar shubha bilan qaraydilar. Masalan, Y.V.Guliganing e'tirofiga qaraganda, til sathlari yuqorilagan sari omonimiya siyraklashadi. G.A.Zolotovaning fikricha, sintaksisdagi omonimiya, odatda, sintaktik konstruksiyalar doirasida tugab, yo'qola borib, aftidan, asosan, so'zlarning sintaktik shakllari, struktura elementlari doirasidagina qolar ekan.¹ Y.V.Guliga va G.A.Zolotovalarning fikrini mutlaqo noto'g'ri deyish maqsadida emasmiz, albatta. Lekin shuni hisobga olish kerakki, gap boshqa narsa, uning modeli boshqa narsa. Gap, yuqorida ham aytilganidek, til hodisasi sifatida qaralar ekan, unda gapning konkret denotativ asosga ega bo'lgan jumla ma'nosidagi tushunchasi nazarda tutilmaydi, balki uning (gapning) modeli hisobga olinadi. Vaholanki, gap modeli (andozasi) – bu «gapning asosiy grammatik va struktur (qurilish) xususiyatlarini o'z ichiga olgan mavhum qurilmadir. U gapning struktur elementlari orasidagi munosabatni ifodalab, uning umumiy grammatik ma'nosini o'zida mujassamlashtiradi.²

Xullas, gaplarga xos shakliy va mazmuniy nomutanosiblik masalasi gapning nutq jabhasiga xos birligini - jumlani nazarda tutmaydi. Bundan gapning nutq birligi sifatidagi qiyofasi, shakl va mazmun mutanosibliги yoxud nomutanosibliги tushunchalaridan chekkada ekan, degan xulosa chiqmasligi kerak, albatta. Chunki nutq birligi maqomidagi gaplarda ham bunday nomutanosiblik ko'zga tashlanadi, lekin ularni chin ma'nodagi

¹ Бердиалиев А. Эргаш гапли қўшма гап конструкцияларида семантик - сингификатив парадигматика. –Т.: Фан, 1989, 58-59-бетлар.

² Абузалова М.Қ. Ўзбек тилида содда гапнинг энг кичик қурилиши қолипи ва унинг нутқда воқеланиши. Филол.фанлари номзоди...дисс.автореф. –Т., 1994, 8-бет.

omonimiya yoki polisemiya tenglashtirib bo'lmaydi. Negaki, nutq va uning har qanday parchasi, birligi so'zlovchining nutq vaziyati bilan bog'liq ma'lum bir maqsadini nazarda tutadi. So'zlovchi (adresant) nuqtai nazaridan omonimiya yoki polisemiya hisobga olinmaydi, omonimiya yoki polisemiya faqat tinglovchi (adresat) nuqtai nazaridan vujudga keladi.

Mutanosiblik yoki nomutanosiblik gap modellarining o'ziga xos tushunchalaridir. Gap qurilishida, uning modelida uni tashkil etuvchi so'z shakllarining morfologik, semantik va sintaktik xususiyatlari hisobga olinadi. Gap struktur sxemasining shakliy va mazmuniy tomonlarini belgilashda gap ichki elementlarining ana shu tomonlariga asoslaniladi. Gap modelining shakliy va mazmuniy jabhalarida ba'zan muvofiqlik – mutanosiblik ko'zga tashlansa, ba'zan bunday mutanosiblik inkor etiladi. Gap modelidagi ikki jabha birliklarining nomutanosibligi sintaksisda sinonimiya, omonimiya, ko'p ma'nolilik singari hodisalarning vujudga kelishiga sabab bo'ladi.

Xullas, nomutanosiblik til taraqqiyotini belgilovchi ijobiy hodisalardan biridir. Tilning qaysi sathida bo'lishidan qat'i nazar, nomutanosiblik inson tilining ichki qurilishiga xos bir qator hodisalarning o'zaro o'xshashligiga asoslanuvchi keng tarqalgan atributdir.

Nomutanosiblikni vujudga keltiruvchi omillar har xil bo'lishidan qat'i nazar, bu hodisa tilning belgilik tabiati asosida mavjud bo'ladi.

Yuqorida polisemiyaning shakldoshlik xususiyatiga ko'ra paradigmatic nomutanosiblik hosil qiluvchi hodisalar sirasiga kirishi aytilgan edi. Shakldoshlik xususiyatiga ko'ra paradigmatic nomutanosiblik hosil qilar ekan, sintaktik polisemiyaning, uning lisoniy tabiatini tushunish uchun umuman polisemiya xususida aytilgan ba'zi mulohazalarni hisobga olmaslikning iloji yo'q.

Polisemiya so'zning yoki belgining ko'p ma'noliligi, bir so'z yoki belgida bir necha ma'noning mavjudligidir. Ko'pgina so'zlar (shuningdek, grammatik shakllar va sintaktik

konstruksiyalar) bir emas, bir necha (ikki yoki ko'p) ma'no bildiradi, turli predmet va voqea – hodisalarni ifodalash uchun xizmat qiladi.¹

Polisemiya semasiologik kategoriya sifatida bir til birligi shaklida ifodalangan turli ma'nolarning ichki, o'zaro bog'langan semantik munosabatidir. Tilning qaysi sathiga aloqador bo'lishidan qat'i nazar, polisemiya obyektiv qonuniyatlar ta'sirida paydo bo'ladi. Demak, polisemiya bir so'z yoki bir sintaktik konstruksiyadan turli xil leksik va grammatik – signifikativ ma'nolarning o'sib chiqishidir.² Ko'p ma'noli birlikning barcha ma'nolari o'zaro bog'liq bo'ladi va bir – birini taqozo qiladi. Akademik V.V.Vinogradov polisemiya tilning chegaralangan resurslari orasidagi disproporsiya (nomutanosiblik) natijasini ko'radi.³

Shakl va mazmun nomutanosibligiga asoslangan polisemiya hodisasiga oid qaydlar taniqli faylasuflar Demokrit va Aristotel ta'limotlarida ham uchraydi. Jumladan, Aristotel til faoliyatini o'rganishda, avvalo, leksik va grammatik ko'pma'nolilikka ahamiyat berish zarur, deb hisoblaydi.⁴

Polisemiya hodisasiga sof lingvistik nuqtai nazardan qarash fransuz semasiologi M.Brealdan boshlandi.

Ko'p ma'noli lisoniy birlikning asosiy xususiyati tilda o'zaro bog'langan ma'nolar sistemasini hosil qilishdir. Polisemantik birlik semalaridagi o'zaro umumiy nuqta ularning shakliy jabhasida ko'rinadi. Shakliy tomoni bir xil bo'lgan bu semalar o'zlarining boshqa muhim belgi – xususiyatlarida turlicha xarakter kasb etadi. Polisemantik birlik tarkibidagi semalar biri ikkinchisining o'sib chiqishi uchun tayanch nuqta bo'lib xizmat qiladi. Demak, polisemantik lisoniy birlikda ma'nolar miqdori qanchaligidan qat'i nazar, ular o'zaro bog'liq

¹ Шмелёв Д.Н. Современный русский язык. –М.: Просвещение., 1977, -с.74.

² Будагов Р.А. Человек и его язык. –М.: МГУ., 1976. – с.118.

³ Виноградов В.В. Русский язык. Грамматическое учение о слове. –М –Л: Учпедгиз, 1947, - с. 15.

⁴ Березин Ф.М. История лингвистических учений. –М.: Высш.шк., 1984. –с.14

bo'lib, bosh ma'nodan rivojlanganligi, shu jihatdan bir – birlariga aloqadorligi bilan ajralib turadi.

Ko'p ma'nolilik tilni murakkablashtiradi, «lekin shu bilan birgalikda, insonlarning turli – tuman va cheksiz fikr hamda tuyg'ularini bir – birlariga yetkazishlarida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi».¹ Polisemiya hodisasi fikrni obrazli va ta'sirli qilib ifodalashga yordam beradi. M.Brealning ko'p ma'nolilikning tilda tutgan o'rmi xususida aytgan quyidagi fikrlari muhim ahamiyat kasb etadi: «...tilda polisemiyaning nihoyatda taraqqiy etganligi fikr ayirboshlash uchun hech mahal qiyinchilik tug'dirmaydi. Uning taraqqiyoti obyektiv mavjudotni o'zaro bog'liq holda anglash, ularni qiyosiy o'rganish, taraqqiyotlarning tilda aks etib turishi kabilar natijasi bo'ladi, ya'ni polisemiya sivilizatsiya belgisidir. Qaysi xalqda fan, texnika, madaniyat, san'at taraqqiy etgan bo'lsa, o'sha xalq obyektiv borliqning o'zaro aloqasini shuncha ko'proq ko'radi, ularni bir – biriga ko'proq qiyos etadi va bular tilida ko'proq o'z aksini topadi, ya'ni insonning o'z atrofini o'rab turgan borliqni umumlashtira olishi bilan bog'liq holatda polisemiya mavjud va taraqqiy etadi».²

Ma'lum tildagi polisemiya o'rganilar ekan, o'sha xalqning tarixiy taraqqiyoti, fikrlash doirasi, nuqtai nazari kabilarga ham e'tibor berilgan bo'lardi.

Fanda polisemiya keng va tor ma'nolarda tushuniladi. Keng ma'noda qaralganda, u omonimiya, funksiyadoshlik hodisalari bilan yonma – yon turuvchi, lekin ulardan o'ziga xos lisoniy xususiyatlariga ko'ra farq qiluvchi hodisa sifatida tushuniladi. Tor ma'noda esa polisemiya hodisasi omonimiyaning tarkibiy qismiga aloqador bir ko'rinish sifatida qaraladi (A.A.Potebnya, F.Danesh). Xususan, A.A.Potebnya lug'aviy birlik nechta ma'noga ega bo'lsa, u o'shancha so'z bo'ladi, deb polisemiyaning inkor etmoqchi ham bo'ladi. Sh.Balli polisemiya va

¹ Будагов Р.А. Человек и его язык. –М.: МГУ., 1976..

² Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. –Т.: Фан, 1975, 9-бет.

omonimiyani o‘zaro farqlaydi: birdan ortiq ifodalanuvchiga ega bo‘lgan bir belgi polisemiya, ifodalovchi tomoni mushtarak bo‘lgan va har xil ifodalanuvchiga ega bo‘lgan, birdan ortiq (ikki) belgini omonimiya deb ko‘rsatadi.¹

Tilga belgilar sitemasi, uning birliklariga belgi nuqtai nazaridan yondashilganda, polisemiya (shuningdek, boshqa mantiqiy – grammatik kategoriyalar ham, masalan, omonimiya, sinonimiya va h.k.) tilning ma’lum bir sathi bilan chegaralanmaydi.

Polisemiya va omonimiya hodisalari tilning fonologiyadan tashqari, barcha sathlarida mavjud. Ular sathlararo biri boshqasini hosil qilish xususiyatiga ega. Bu, ayniqsa, omonimiya bilan bog‘liq jarayonlarda aniqroq namoyon bo‘ladi: omomorflar omonim shakllarni vujudga keltiradi, omonim shakllar omonimik sintaktik qo‘shilmalar tarkibida ishtirok etadi, omonimik sintaktik qo‘shilmalar (omosingintaksemalar) omonim gaplarning vujudga kelishiga sabab bo‘ladi.²

Poliesmiya yoki ko‘p ma’nililik tilning mazmun planiga (semantik jabhasiga) xos umumlisoniy hodisa sifatida qaraladi. Shunday ekan, polisemiya morfemaga xosmi, lug‘aviy birlikka xosmi, frazeologik iboranikimi, sintaktik konstruksiyalarnikimi – baribir uning nazariy masalalari bir xil bo‘ladi. Polisemiya – bu semasiologik kategoriyadir. L.A.Novikov har qanday leksik – semantik kategoriyaga semantikaning ikki yo‘nalishi nuqtai nazaridan yondashadi: semasiologik va onomasiologik yo‘nalish. Ulardan biri (semantik yo‘nalish) boshqasiga nisbatan yetakchi mavqeda bo‘ladi, deb yozadi u. L.A.Novikov semasiologik va onomasiologik aspektlar asosida leksik – semantik kategoriyalarni ko‘proq nazarda tutgan.

Leksik – semantik kategoriyalarga semasiologik yo‘nalish (bu yetakchi yo‘nalish) asosida yondashilganda, leksik –

¹ Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. –М.: Изд.ин.лит. 1955, –с.189

² Маулер Ф.И. Грамматическая омонимия в английском языке. Часть I, - Орджоникидзе, 1977. –с.22

semantik butunlik yoki tilning leksik sathiga xos belgi qanday ma'noga ega, bu belgi nimani bildiradi kabi masalalar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Semasiologik yondashuv polisemiyaning tabiatini ochishda bosh omil hisoblanadi. Bunday yondashuv polisemiyaning tarkibini aniqlashda qo'l keladi. Lisoniy – semantik butunlikka semasiologik yo'nalish nuqtai nazaridan yondashilganda, tinglovchi lisoniy belgining barcha ma'nolari va ularning xususiyatlarini xayolidan o'tkazadi, ularni nutqiy vaziyat yoxud kommunikatsiya talabiga ko'ra sanab chiqadi. Lisoniy – semantik butunlikning nutq sharoiti va kommunikativ maqsad taqozo etgan ma'noviy birligini tanlaydi, uni shu lisoniy semantik butunlikning boshqa ma'noviy birliklaridan ajratib oladi. Shu bois ham lisoniy – semantik butunliklarga semasiologik yo'nalish nuqtai nazaridan yondashuv asosiy va yetakchi omil hisoblanadi.

Leksik – semantik kategoriyaga onomasiologik yo'nalish nuqtai nazaridan yondashilganda, mazkur lisoniy belgida qanday mazmun ifodalanganligi masalasi muhim rol o'ynaydi. Onomasiologik yondashuv semasiologik yondashuvga nisbatan kamroq ahamiyatli hisoblanadi. Chunki polisemantik qurilmaning ma'nolari assotsiativ (paradigmatik) tarzda bog'langan bo'lib, ular alohida – alohida mikromaydonlarga taqsimlanadi va u mushtarak fikriy (mantiqiy) butunlikni aks ettirmaydi.¹

Semasiologik va onomasiologik yondashuvlar semasiologik va onomasiologik jarayondar mahsulidir. Lisoniy – semantik birliklar (belgilar)ning vujudga kelishi, amali va h.k. bilan bog'liq bu ikki jarayonning mutanosibligi tilga xos shakliy va mazmuniy mutanosiblik (simmetriya)ni ta'minlaydi.

Jamiyat taraqqiy etgan sari til ham rivojlanib boradi. Jamiyat hayotida ro'y bergan turli iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy o'zgarishlar, tabiiyki, tilga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bu ta'sir natijasida tilda mavjud bir shakliy qiyofa boshqa yangidan-yangi ma'nolarni ifodalash ushun xoslana boradi. Belgi va uning ma'nosi orasidagi ana shunday munosabat polisemiya

¹ Новиков Л.А. Семантика русского языка. –М.Высш.шк., 1982. –с.190

hodisasining vujudga kelishiga turtki bo'ladi: belgi dastlabki bosh ma'nosi bilan o'zaro bog'liqlikdagi yana boshqa ma'nolarni ham kasb etib boradi. Natijada ko'p ma'nolilikning vujudga kelishi va rivojlanishiga imkoniyat yaratiladi. Bundan tashqari, yana shuni aytish mumkinki, til taraqqiyoti hamma vaqt tejamlilikka intilish bilan mutanosib bo'ladi. Buning mantiqiy asoslari bor, albatta: tilning mazmuniy sathiga xos birliklarning manbai tashqi (obyektiv) olam bo'lib, ular tildan tashqarida, ekstralingvistik xarakterda bo'ladi. Ularni kamaytirish mumkin emas. Agar tilning mazmun sathiga xos har bir birlikda shakliy sathda ham o'z material qiyofasiga ega bo'la olish imkoniyati mavjud bo'lganda edi, tilda shakliy birliklar kun sayin ortib borgan bo'lardi.

Inson tilining psixo-fiziologik faoliyat bilan bog'liq imkoniyatlari bunday ko'payishga yo'l qo'ymaydi: yangidan paydo bo'ladigan ma'noviy birliklar tilda oldindan mavjud bo'lgan shakliy birliklar zimmasiga yuklana boradi, natijada bir shakliy qiyofaning mazmun qamrovida kengayish vujudga keladi. Bunday jarayonlar doimiy va amaliy bo'lib, tilning shakliy birliklarining sistemasi toraya boradi, aksincha, uning ma'noviy birliklari sistemasi kengaya boradi. Tilning shakliy va mazmuniy jabhalariga xos nomutanosiblik shu tarzda faollashadi.

Polisemiya va omonimiya (qaysi sathda bo'lmasin), ana shunday mantiqiy va lisoniy qonuniyatlar zaminida vujudga keladi.¹

Til birliklarining ko'p ma'noliligi aloqa jarayonida sanoqli til vositalari yordamida son – sanoqsiz ma'nolarni ifodalashda insonlar ushun katta imkoniyat yaratadi. Ko'p ma'nolilik tilga xos ijobiy hodisa bo'lib, u aloqa jarayonida insonlarga xalaqit bermaydi, balki yordam beradi.

Polisemiyaning mavjudligi muqarrar va qonuniydir. Polisemiyaning qonuniy va muqarrarligi hodisalarning chegarali

¹ Маулер Ф.И. Грамматическая омонимия в английском языке. Часть I, - Орджоникидзе, 1977. -с.22

va chegarasiz bo'lishi antinomiyasiga asoslanadi: bir tomondan qaraganda, tafakkurning mazmuniy birliklari cheksiz va chegarasizdir. Boshqa tomondan esa, til belgilari chekli va chegaralangan bo'ladi. Bu nomuvofiqlik tildagi shakl va mazmun nomutanosibligiga olib keladi, oqibatda, tilning ma'lum bir tovush qobig'iga ega bo'lgan birliklari o'ziga munosib bo'lmagan ortiq darajada semantik struktura kasb etib, polifunksional qiymatga ega bo'ladi. Bunday lisoniy birliklar semantik strukturasi alohida – alohida elementlari kommunikatsiya jarayonida navbatma – navbat ishtirok etadi. Qaysi elementning tanlanishi nutq vaziyati tomonidan belgilanadi.¹

L.A. Novikov rus tilining ba'zi polisemik lug'aviy birliklari misolida ko'p ma'nolilikni vujudga keltiruvchi va uni rivojlantiruvchi ush etapni e'tirof etadi. Bunday jarayonlar belgi va uning ma'nosi orasidagi munosabatdoshlikning ma'lum bir turlari bilan bog'lanadi. Belgi va uning ma'nosi munosabatining dastlabki (birinchi) tipi monosemiya (bir ma'nolilik) bilan bog'lanadi. Bunday tip polisemiyaning xususiy ko'rinishlaridan biri hisoblanadi hamda belgi va uning ma'nosi munosabatida mutanosiblik bo'ladi. Belgi va uning ma'nosi munosabatining dastlabki (birinchi) tipi monosemiya (bir ma'nolilik) bilan bog'lanadi. Bunday tip polisemiyaning xususiy ko'rinishlaridan biri hisoblanadi hamda belgi va uning ma'nosi munosabatida mutanosiblik bo'ladi. Belgi va uning ma'nosi munosabatining ikkinchi tipi chin ma'nodagi polisemiyaga yo'l ochadi. Unda: a) polisemantik birliklar monosemantik birliklarga yaqin bo'lib, polisemantik birliklararo oraliq (zazor) kuchsizroq, kichikroq bo'ladi; b) polisemiyada belgi va uning ma'nolari oraliq sezilarli, kuchli bo'ladi. Agar birinchi holat (tip)da belgi va uning ma'nosi deyarli muvofiqlashib, biri boshqasini taqozo etsa, ikkinchi holat (tip)da aksincha, ular orasidagi bog'liqlik sezilarli darajada erkin bo'ladi: belgi miqdoran ko'proq ma'noviy birliklarga ega bo'lib, ular boshqa sinonim – belgilar qamrovda ham

¹ Колшанский Г.В. Контекстная семантика. –М.: Наука, 1980. –с.13-14

kengroq ifodalana olish imkoniyatini qo‘lga kiritadi. Belgi va uning ma‘nosi munosabatdoshligining keyingi – uchinchi etapi bu omonimiya bo‘lib, ko‘p ma‘noli birliklarning variatsiyalashuvi bilan xarakterlanadi: semantik birliklararo bog‘lanish barham topadi. Demak, polisemiya ikki chekka qutb-monosemiya va omonimiya oralig‘idagi lisoniy semantik kategoriyadir.¹

Shunisi ham borki, belgi va uning ma‘nosi orasidagi munosabatdoshlik polisemiyaning xarakteri va tipini belgilash uchun xizmat qiladi. Muhimi shundaki, polisemiyaning xarakteri va tipi hamma tillarda bir xil bo‘la olmasligi mumkin. Buning sababi bor, albatta. Polisemiyaning tipi va xarakteri til taraqqiyotining umumiy saviyasi, xalq madaniyati va yozuvi an‘analariga o‘xshash bir qator xususiyatlar bilan bog‘liq ravishda har xil bo‘ladi. Polisemiyaning u yoki bu xarakteri va tipiga qarab tilning taraqqiyot darajasi, uning ifoda imkoniyatlari, saviyasi haqida biror bir xulosaga kelish mumkin bo‘ladi. Shuning uchun ham polisemiya hamma tillarda til amaliy faoliyatining har bir etapida uning tarkibiy qismi xarakterini kasb etadi. Boshqacha ta‘bir bilan aytganda, polisemiyaning tipi va xarakteri obyektiv borliqqa mutanosib tarzda bog‘liq bo‘ladi.

¹ Новиков Л.А. Семантика русского языка. –М., 1982, -с.192-193.

SINTAKTIK POLISEMIYA TIL HODISASI SIFATIDA

Polisemiya til hodisasi sifatida talqin etilganda, gap til hodisasi sifatida qaraladi. Polisemantiklik (yoki omonimlik) gapning to'liq sintaktik qurilishi bilan emas, balki gapning konkret sintaktik qurilishini tipiklashtiruvchi va uni abstrakt jabhaga olib chiquvchi konstruksiya, struktur sxema, model va h.k. atamalar bilan nomlanib kelinayotgan qurilmalarga nisbatlanadi. Y.I.Shendels, V.A.Guliga, A.L.Vasilyevskiy, D.A.Salkova, G.A.Zolotova, A.Berdialiyev, A.Mamajonov va boshqa tilshunoslarning ishlarida sintaktik polisemiyaga ana shunday nuqtai nazar asosida yondashiladi.

Y.I.Shendels polisemiyaning soʻz shakllariga nisbatan qoʻllaydi. Bu hodisaning sinxron koʻp maʼnolilik, komponental koʻp maʼnolilik, potensial koʻp maʼnolilik kabi uch turini ajratadi. Sinxron koʻp maʼnolilik termini ostida maʼlum bir soʻz turkumiga xos soʻz shakllarining bir vaqtning oʻzida har xil grammatik maʼnolar anglatishi (masalan, oʻtning har qanday shakli bir vaqtning oʻzida kelishik, son, rod; feʼllarning istalgan shakli shaxs, son, mayl maʼnolarini anglatishi) tushuniladi. Ayrim kategorial maʼnolarning (alohida grammema) har xil semalardan tashkil topishi polisemiyaning komponental koʻp maʼnolilik deb ataluvchi ikkinchi turiga kiritiladi. Muallif polisemiyaning potensial koʻp maʼnolilik deb ataluvchi turini soʻz shakllarining turli xil grammatik holatlarda turlicha maʼnolarga ega boʻlishi, deb izohlaydi. Soʻz shakllari maʼnosini asosiy va asosiy boʻlmagan (ikkinchi darajali) kabi turlarga ham ajratadi. Asosiy

ma'nolarga paradigmatik, asosiy bo'lmagan ikkinchi darajali ma'nolarga sintagmatik ma'nolarni kiritadi. Paradigmatik va sintagmatik ma'nolarning o'zaro munosabatdoshligi, sintagmatik ma'nolar zaminida paradigmatik ma'nolarning qandaydir bir semalari yotishini qayd etadi.¹

V. Skalichka o'zining «Venger tili grammatikasi haqida» (1935) asarida morfemalarning ko'p ma'noliligi xususida fikr yuritadi. Masalan, rus tilidagi *комнаты* so'zi tarkibidagi -ы morfemasi ikki ma'no ifodalaydi: ko'plik ko'rsatkichi va roditelniy padej ko'rsatkichi.²

D.A.Salkova o'zining nemis tili ergash gapli qo'shma gaplarining omonimiyasi va polisemiyasi tadqiqiga bag'ishlangan ishlarida polisemiyaning sintaktik konstruksiyalarning modeliga nisbatlaydi: «bir model doirasida ikki yoki undan ortiq signifikativ ma'nolarning ifodalanishi»ni sintaktik polisemiya deb ataydi.³

Xullas, polisemiya, asosan, tilga xos hodisa hisoblanib, u sintaktik qurilmalarning so'zlovchi ixtiyorida tashqaridagi doimiy ma'nosidir.

Yuqorida ham aytib o'tilganidek, G.A.Zolotova sintaksema atamasini an'anaviy nomlanishdagi gap bo'laklariga nisbatan ishlatadi. Tadqiqotchi «Rus tili funksional sintaksisi ocherki» asarida sintaktik konstruksiyalar polisemiyasi haqida ham alohida fikr bildiradi. Predmetning biror shaxsga xususiy qarashlilik ma'nosidagi *у них сын, у соседей сад*; subyektgа

¹ Шендельс Е.И. О грамматической полисемии // *Вопр. языкознания.*, 1962, -№3, - с.53; Шендельс Е.И. Многозначность и синонимия в грамматике. -М.: Высш.шк. 1970, - с.22-23, 26-27

² Березин Ф.М., Головин Б.Н. *Общее языкознание*, -М.: Просвещение, 1979,

³ Салькова Д.А. *Некоторые вопросы омонимии и многозначности синтаксических конструкций. Автореф.дисс... канд.филол.наук.* -М., 1967,

tegishli belgi – xususiyat ma'nosidagi *у нее коса, у него доброе сердце*; subyektning ichki kechinmasi – holati ma'nosidagi *у него тоска, у него лихорадка*; keng ma'nodagi holat va voqea – hodisaning mavjudligi ma'nosidagi *у него экзамены, у нас каникулы, у сестры отпуск* tipidagi butunliklarni sintaktik konstruksiyalarning polisemiyasi (polisemantik modellar) deb qaraydi.¹

G.A.Zolotovanning 1982-yili nashr etilgan «*Rus sintaksisining kommunikativ aspektlari*» monografiyasida ham sintaktik polisemiya xususida gap boradi. Unda morfologik, kategorial – semantik va funksional – sintaktik xususiyatlariga ko'ra mushtarak bo'lgan sintaksemalarning har xil kategorial tagguruhlar hosil qilish imkoniyati sintaktik ko'p ma'nolilik sifatida talqin etiladi: *жил у моря, жил у границы, жил у пограничников, жил у сына* konstruksiyalari tarkibidagi *у моря, у границы* sintaksemalari bilan *у пограничников, у сына* sintaksemalari bir modelga ega bo'lib, bir kategorial (o'rin) ma'noning har xil tagguruhleri (joy bilan bog'liq, shaxs bilan bog'liq)ni ifodalagan.²

F.M.Berezin va B.N.Golovinlar tomonidan nashrga tayyorlangan «*Umumiy tilshunoslik*» qo'llanmasida ham gapning ikkinchi darajali bo'laklari polifunksionalligi haqida fikr yuritiladi: «*Leksik sinonimiya tilda qanday mavqega ega bo'lsa, sintaktik polisemiya ham ana shunday diqqat – e'tiborda bo'lishi lozim. Faqat shundagina biz bir gapdan birgina grammatik mazmun qidirmaymiz. Gapning ko'pgina bo'laklari ikki*

¹ Бердиалиев А. Эргаш гапли қўшма гап конструкцияларида семантик - сингификатив парадигматика. 48-49-бетлар.

² Золотова Г.А. Коммуникативные аспекты русского синтаксиса. –М.: Наука, 1982, с.70.

grammatik mazmunga ega bo'ladi: obyektli va aniqlovchili, obyektli va holli, aniqlovchili va holli».¹

Sintaksisga xos ko'p ma'nolilik (polisemiya) va uning xususiyatlari haqida L.D.Chesnokovaning ham e'tiborga loyiq qaydlari mavjud. U an'anaviy yo'sinda gap bo'laklari (T.P.Lomtevda – so'z, I.L.Susov – tagmema, G.A.Zolotovada – so'zning sintaktik shakli) anglatgan ma'nolar xususida gapirib, so'zning sintaktik shakllari (gap bo'laklari) bunday ma'nolarni sintaktik butunlik qamrovida boshqa so'z shakllari bilan munosabatda anglatadimi yoki sintaktik butunlik tarkibiga kirmay, boshqa so'z shakllari bilan bog'lanmay ham, tanho holda ham anglatadimi, degan masalani qo'yadi. U bu masalani o'zaro zid ikki nuqtai nazar asosida tushuntirishga harakat qiladi. Birinchisi, so'z shakllari anglatgan sintaktik ma'nolar sintaktik butunlikdan tashqarida ifodalanmaydi. Chunki sintaktik ma'nolar biror bir konstruksiya tarkibida boshqa so'z shakllari bilan munosabatda vujudga keladi. Ikkinchisi, so'zning sintaktik shakllarining ma'nolari ularning sintaktik butunlik tarkibiga kirgunigacha mavjud bo'ladi. Lekin bunday ma'nolar virtual sintaktik ma'nolar sanalib, potensial xarakter kasb etadi.

So'z shakllarining potensial xarakterdagi virtual sintaktik ma'nolari sintaktik sathda polisemiyaga yo'l ochuvchi omil hisoblanadi. Demak, so'z shakllari tanho holatda ham ma'noga ega bo'la oladi.

Tanho holatdagi so'z shakllarining sintaktik plandagi ko'p ma'noliligi va bu ma'nolarning virtual xususiyati virtual ma'nolarni birlamchi ma'no degan xulosaga olib bormaydi. Sintaktik shakllarning ma'nosi dastlab nutqda hosil bo'ladi. Shu

¹ Березин Ф.М., Головин Б.Н. Общее языкознание. –М.: Просвещение, 1979, с.45.

ma'nolar xoslangan sintaktik shakllarning takror – takror qo'llanishi natijasida bunday ma'nolar shu shakllarning tanho holatda ham anglashila oladigan xususiyatga ega bo'ladi – nutqiy ma'nolar ana shu tarzda virtual ma'nolarga aylanib, lisoniy maqom kasb etadi. Nutqiy jarayonda so'z shakllarining ma'nolaridan biri aktuallashadi. So'z shakllari ma'nolarining aktuallashuvida sintaktik konstruksiyaning leksik – semantik, morfologik va sintaktik xususiyatlari o'zaro munosabatga kirishadi.¹

O'zbek tilshunosligida sintaktik polisemiya masalasi kam o'rganilgan. Sintaktik sathga xos polisemiya haqida A.Berdialiyevning va A.Mamajonovning ishlarida ma'lumotlar uchraydi.

A.Berdialiyev sintaktik polisemiyaga o'ziga xos semantik – grammatik tizim sifatida qarab, uning qamroviga sintaksema, sintaksemema tushunchalarini kiritadi. Sintaksema elementar (eng kichik) sintaktik – semantik birlik bo'lib, polisemiya paradigmasida uning a'zolaridan biri sifatida ish ko'radi. Sintaksemada obyektiv borliqning ma'lum bir fakti lisoniy sathga ko'ra voqelanadi (predmet va uning belgisi, harakat va uning belgi – xususiyati va boshqalar), ular o'zaro sintaktik aloqasi grammatik jihatdan ifodalangan boshqa qismlarga bo'linmaydi. Sintaksema shakl va mazmun planlariga ega bo'lgan konfiguratsion butunlikdir. Ma'lum bir signifikativ ma'nolar o'ziga xos sintaktik shakllarda ifodalanib, bir sintaksemi hosil qilsa, yana boshqa material birliklar ma'lum bir ma'nolar ifodalab, yana boshqa sintaksemalarni hosil qilaveradi. Agar ma'lum bir materialga ega bo'lgan shakllar

¹ Чеснокова Л.Д. К вопросу об элементарной синтаксической единице // Теоретическое проблемы синтаксиса современных индоевропейских языков. –Л., 1975, с.122-123.

boshqa material shakllar ifoda etadigan ma'nolar bildirsa, unda sintaksemaning shakl va mazmun planida asimmetriya vujudga keladi – shakl va mazmun mutanosibligiga putur yetadi, natijada yo polisemiya, yo omonimiya paradigmasi vujudga keladi. Bunday hollarda elementar sintaktik birlik yo polisemantik, yo omonimik xarakterdagi sintaktik birlik – sintaksema xarakteriga ega bo'ladi.¹

A.Mamajonov «Qo'shma gap stilistikasi» (Toshkent, «Fan», 1990) monografiyasida qo'shma gaplar polisemiyasi uchun ham alohida o'rin ajratadi. U qo'shma gaplar polisemiyasining amal ko'lamini: a) qo'shma gap komponentlarini biriktiruvchi vositalar doirasida; b) qo'shma gapni tashkil etuvchi komponentlar doirasida kabi ikki guruhga ajratadi. Tadqiqotchi shu narsani e'tirof etadiki, «... polisemiyada bir shaklning kontekstda turli ma'nolar anglatishi asosga olinadi. Masalan, -sa shaklining bosh ma'nosi shart ottenkasini ifodalashidir. Shuning uchun ham bu shakl, ko'pincha, shart ergash gapni bosh gapga bog'lash uchun xizmat qiladi. Bu shaklning hozirgi o'zbek tilida ma'nosi juda kengaygan: payt, qiyos, sabab kabi ma'nolarni ham anglatish uchun xizmat qiladi. Biz bu o'rinda ergash gapli qo'shma gaplar doirasida qo'llanuvchi bog'lovchi vositalarning ma'nosi haqidagina fikr yuritamiz. Chunki ko'p ma'nolilik, asosan, ergashtiruvchi bog'lovchilarga xos bo'lgan xususiyatdir».²

Biz professor A.Mamajonovning sintaktik polisemiya xususida bildirgan fikrini to'la ma'qullagan holda, shuni ta'kidlamoqchimizki, olib borgan tadqiqotlarimiz teng

¹ Бердиалиев А. Эргаш гапли қўшма гап конструкцияларида семантик – сигнификатив парадигматика. –Т.: Фан, 1989, 50-51-бетлар.

² Мамажонов А. Қўшма гап стилистикаси. –Т.: Фан, 1990. 105-бет.

bog'lovchilar va teng bog'lovchi vazifasidagi yuklamalar yordamida bog'langan qo'shma gaplarda ham polisemiya hodisasini kuzatish mumkinligini ko'rsatdi.

A. Berdialiyevning tadqiqotlaridan birida qo'shma gaplarni hosil qiluvchi bog'lovchi va bog'lovchi vositalar **sintaktik va semantik** bog'lovchilar kabi ikki guruhga ajratiladi. E'tirof etilishicha, semantik bog'lovchilar monosemik xarakter kasb etadi. Hosil bo'lgan qurilmada bog'lovchining ma'nosi muhim rol o'ynaydi, sintaktik butunlikning ma'nosi bog'lovchining ma'nosiga mutanosib bo'ladi. Bunday bog'lovchilar sirasiga **goh-goh, yo-yo, bir-bir, na-na** tipidagi teng bog'lovchilar; **go'yo, xuddi, agar, basharti, chunki, sababki, shuning uchun** tipidagi ergashtiruvchi bog'lovchilar kiritiladi. Bunday bog'lovchilar yordamida hosil bo'lgan sintaktik konstruksiyalar, odatda, monosemantik xarakterda bo'ladi. Sintaktik bog'lovchilar esa semantik bog'lovchilarning aksidir. Ularga **va, ammo, lekin, biroq** singari teng bog'lovchilar, **-ki, deb/ deya** kabi ergashtiruvchi bog'lovchilar hamda fe'ning ergashtiruvchi bog'lovchi vazifasidagi har xil affiksli shakllari kiritiladi. Sintaktik bog'lovchilar aslida ma'nosiz bog'lovchilar bo'lsa-da, polisemantik tavsifdagi sintaktik butunliklar hosil qiladi, chunki sintaktik konstruksiyalarning semantik – signifikativ xarakteristikasini belgilashda bunday bog'lovchilarning hissasi bo'lmaydi. Ularning vazifasi sof sintagmatik xarakterda bo'ladi – qismlarni biriktiradi, xolos.¹

Ishimizning navbatdagi qismi sintaktik bog'lovchilar yordamida hosil bo'lgan konstruksiyalar polisemiyasi tadqiqiga bag'ishlanadi.

¹ Бердиалиев А. Ўзбек тили эргаш гапли қўшма гапларида синтактик алоқа ва синтактик муносабатлар. –Т.: «Университет» нашриёти, 1993. 36-б.

Bog'langan qo'shma gaplarda ko'p ma'nolilik

Bog'langan qo'shma gapni tashkil etgan qismlar orasida ham... payt, qiyoslash, sabab-natija, izohlash va ayirish mazmun munosabatlari ifodalanadi. Bog'langan qo'shma gapni tashkil etgan qismlar shaklan mustaqil, mazmunan o'zaro bog'langan gaplardan tashkil topadi¹. Demak, ma'lum bo'ladiki, teng bog'lovchilarda ham ko'p ma'nolilik mavjud. Masalan, *va* bog'lovchisi yordamida qo'shma gapning voqea-hodisalarning bir paytda bajarilishi, voqea-hodisalardan birining boshqasi uchun sabab bo'lishi va h.k. ma'noli turlari hosil bo'lishi mumkin. Misollarni qiyoslaylik: *Asrlar birma-bir o'tar va axir Yuksalar qarshimda eng baxtli odam* (A.Oripov) – voqea-hodisalarning turli paytda bajarilishi ma'nosidagi bog'langan qo'shma gap; *Opasida g'azab otashi va Zaynabda andisha g'ashi* (H.Olimjon) – voqea-hodisalarning bir paytda bajarilishi ma'nosidagi qo'shma gap; *Odob ulug'lar ko'nglida yoshlarga mehr uyg'otadi va u odobli yoshlarga bo'lgan muhabbat ko'ngilda abadiy qoladi*. (A.Navoiy) – voqea-hodisalardan birining (birinchisi) boshqa voqea-hodisa uchun sabab bo'lishi ma'nosidagi qo'shma gap.

Bunday xususiyat *ammo, lekin, biroq, balki, bo'lsa esa* singari (zidlov, qiyoslov) boshqa teng bog'lovchilarda; ana shu bog'lovchilar vazifasida ishlatiluvchi *-u, -yu, -da* yuklamalarida ham mavjud. Ayrim misollar keltiramiz: *Kuzning sovug'i keldi, biroq yog'ini kelmadi*. (G.G'ulom) – voqea-hodisalarning zidlanishi ma'nosidagi qo'shma gap; *Mehnat qilgan yaxshi, biroq ishning ko'zini bilib mehnat qilgan undan ham yaxshi*. (R.Usmonov) – voqea-hodisalarning qiyoslanishi ma'nosidagi qo'shma gap.

¹ Ўзбек тили грамматикаси. II том. Синтаксис. –Т.: Фан, 1976, 332-333-бетлар.

Polisemantiklik, ayniqsa, teng bog'lovchilar vazifasida qo'llanuvchi **-u**, **-yu**, **-da** yuklamalarida yana faolroq. Birgina **-u** yoki **-yu**, **-da** yuklamalari yordamida hosil bo'lgan bog'langan qo'shma gaplarda voqea-hodisalarning turli paytda bajarilishi, voqea-hodisalardan birining boshqasi uchun sabab bo'lishi, voqea-hodisalarning o'zaro zidlanishi, voqea-hodisalarning o'zaro qiyoslanishi va h.k. ma'nolar ifodalana oladi. Teng bog'lovchi va ularga vazifadosh lisoniy hodisalarning bu xususiyatlari teng bog'lovchilarning ham polifunksional va polisemik tabiatini yaqqolroq ko'rsatish uchun xizmat qila olishi shak-shubhasiz.

Shuni alohida qayd etish lozimki, sintaktik sathga xos polisemiyaning belgilashda sintaktik butunliklarni hosil qiluvchi bog'lovchi vositalarning polifunksional xususiyatini ajratib olish, unga tayanishning o'zi yetarli emas. Bunda ayni ana shu bog'lovchi vositalar ishtirok etgan qurilmalar va ularning to'liq konstruksiyasi nazarda tutilishi kerak. Chunki sintaktik qurilmalar tarkibidan ajratib olingan bog'lovchilarning o'zi hech qanday sintagmatik va semantik qiymatga ega bo'la olmaydi. Bir sintaktik qurilma tarkibida bog'lovchining ma'no va funksiyasi ana shu qurilma tarkibidagi boshqa lisoniy vositalar bilan birgalikda amalga oshadi, zero, bog'lovchi va bog'lovchi vositalarning o'zi ham avtonomik tarzda garchand morfologiya yoxud morfemika ixtiyorida bo'lsa-da, uning lisoniy tabiati, lisoniy qiymati sintaktik sathda namoyon bo'ladi. Bunday vositalar, hatto kelishik, egalik, shaxs-son kategoriyalarini hosil qiluvchi marker shakllar ham sintaksis uchun xoslangan lisoniy hodisalar¹. Masalan, *Yo Salim keladi yo Karim keladi* tipidagi qurilmalar amfibolik tavsif kasb etadi, unda, birinchidan, nutqiy-lisoniy tus olgan ekstralingvistik vaziyatlar (Salimning kelishi, Karimning kelishi) inkor hukm bilan ifodalangan bo'lsa, ikkinchidan, lisoniy-nutqiy shaklga kirgan ekstralingvistik vaziyatlarning dizyunktiv munosabati tufayli biri boshqasini

¹ Будагов Р. Человек и его язык. —М.: МГУ, 1976.

inkor etuvchi holatlar ifodalangan: kelgan – har ikki shaxs emas, balki ulardan biridir: *Salim kelgan bo'lsa, Karim kelmagan yoki aksincha, Salim kelmagan bo'lsa, Karim kelgan.*

Demak, ma'lum bo'ladiki, sintaktik butunlik tarkibidagi bog'lovchining ma'nosi faqat sintaktik konstruksiya bilan bog'lanadi. Ularni butunlik tarkibidan ajratgan holda tahlil qilish bir tomonlama va noreal xulosalar chiqarishga sabab bo'ladi.

Qismlari va bog'lovchisi orqali bog'langan qo'shma gaplarda ko'p ma'nolilik

G'.Abdurahmonov o'zining «Qo'shma gap sintaksisi» asarida bog'langan qo'shma gap komponentlarini biriktiruvchi vositalar sirasiga va, ham, hamda bog'lovchilari kirishini ta'kidlab, qo'shma gapning tuzilishi va u ifodalagan ma'no, asosan, unda ishtirok etgan grammatik vositalar va, ham, hamda ga bog'liqligini alohida etirof etadi¹.

Va bog'lovchisi biriktiruvchi bog'lovchili bog'langan qo'shma gaplarning asosiy grammatik shaklidir.

Yuqorida ham ta'kidlab o'tganimizdek, va bog'lovchisi orqali bog'langan qo'shma gaplar polisemantik xarakter kasb etadi.

Qismlari va orqali bog'langan qo'shma gaplar uchun umumiy bo'lgan ma'no «*xabar*» ma'nosidir. Bu bog'lovchi yordamida bog'langan qo'shma gapning voqea-hodisalarning bir payta bajarilishi; turli paytda bajarilishi; voqea-hodisalardan birining boshqasi uchun sabab bo'lishi va h.k. ma'noli turlari hosil bo'lishi mumkin.

1. *Chor atrofda esardi yellar*

Va bog'larda qushlar chiyillar. (H.Olimjon)

Bu bog'langan qo'shma gap komponentlari o'zaro tenglanish xarakteridagi sintaktik aloqaga kirishgan bo'lib, biri

¹ Абдурахмонов Ф. Қўшма гап синтаксиси асослари. –Т., 1958.

ikkinchisiga mantiqan tobe yoki bog'liq emas. Har ikki komponentdagi voqea bir paytda sodir bo'lgan, ularning har biri o'zicha mustaqil. Ularning o'rinlari almashganda ham, gapning umumiy mazmuniga putur yetmaydi. Demak, qo'shma gap qismlari grammatik jihatdan ham, semantik jihatdan ham teng aloqaga kirishgan. Bu gapda bir paytda sodir bo'lgan va biri ikkinchisiga bog'liq bo'lmagan voqea-hodisalar ifodalangan.

2. *O'chgandir zulmatning zaqqumli sasi*

Va ul jallod zamon bitgan abadiy. (A.Oripov)

Bu bog'langan qo'shma gap qismlari grammatik jihatdan teng aloqaga kirishgan bo'lib, mantiqan biri ikkinchisiga tobe. Komponentlardagi voqea-hodisalar yuqoridagi misoldagi kabi bir paytda yuzaga kelgan. Lekin farqli tomoni shundaki, bu gapda ikkinchi komponent mantiqan birinchi komponent orqali sodir bo'lgan. Boshqacha qilib aytganda, birinchi propozitsiya ikkinchi propozitsiyaning yuzaga kelishi uchun asos hisoblanadi. Demak, bu bog'langan qo'shma gapda bir paytda sodir bo'lgan va biri ikkinchisiga bog'liq bo'lgan voqea-hodisalar ifodalangan.

3. *Novdalarni bezab g'unchalar Tongda aytdi hayot otini*

Va shabboda qurg'ur ilk sahar Olib ketdi gulning totini. (H.Olimjon)

Bu qo'shma gap qismlari ham grammatik jihatdan teng aloqada bo'lsa-da, mantiqan biri ikkinchisiga tobe hisoblanadi. Chunki bunday bog'langan qo'shma gaplarda ifodalangan voqea-hodisalar birin-ketin: avval birinchi voqea-hodisa, keyin ikkinchi voqea-hodisa sodir bo'ladi. Yuqoridagi gapda ham avval ro'y bergan voqea: *Novdalarni bezab g'unchalar tongda aytdi hayot otini*; keyin ro'y bergan voqea-hodisa: *Shabboda qurg'ur ilk sahar olib ketdi gulning totini*. Bu misolda sabab-natija munosabati emas, balki ikki voqea-hodisaning ketma-ket ro'y berganligi ma'nosi ifodalangan.

4. *Saodat kundan-kunga o'sib borar, shu nusbatda husniga husn qo'shilar va men battar uning maftuni kesilar*

edim. (A.Qodiriy).

Bu qo'shma gapning grammatik shakli ham va bog'lovchisidir. *Va* bog'lovchisi yuqoridagi gaplardagi singari bu gapda ham qo'shma gap qismlarini o'zaro tenglashish yo'li bilan sintaktik aloqaga kiritgan. Bu gapda sabab-natija munosabati ifodalangan. Birinchi sodda gap ifodasi bo'lgan voqea oqibatida ikkinchi sodda gap ifodasi bo'lgan voqea sodir bo'lgan, ya'ni ***Saodatning kundun-kun o'sib, husniga husn qo'shilishi sababli men uning battar maftuni kesilar edim.***

5. ***Ko'ngil xazinasining qulfi tildir.***

Va ul xazinaning kaliti so'zdir. (Navoiy).

Bu bog'langan qo'shma gapda umumiy izoh munosabati ifodalangan. Uning qismlari grammatik jihatdan ham, semantik jihatdan ham teng aloqaga kirishgan.

Zidlov bog'lovchilari yordamida bog'langan qo'shma gaplarda ko'p ma'nolilik

Zidlov bog'lovchili bog'langan qo'shma gap qismlari ***ammo, lekin, biroq*** bog'lovchilari hamda ***-u, (-yu)*** yuklamalari orqali bog'lanadi.

Komponentlari ***ammo, lekin, biroq*** bog'lovchilari orqali bog'langan qo'shma gaplarda ham ko'p ma'nolilik hodisasini kuzatish mumkin. Bunday qo'shma gaplar uchun «***zidlik***» ma'nosi umumiy ma'no hisoblanadi. Bevosita «***zidlik***» ma'nosidan o'sib chiqqan va unga bog'liq bo'lgan «***qiyos***», «***izoh***», «***shart***», «***to'siqsizlik***» ma'no munosabatlari bunday modeldagi qo'shma gaplarning farqlovchi ma'nolari hisoblanadi.

1. Zidlik ma'no munosabati:

Qarnoq yigitlari arslonday olishdi, lekin g'animlar ko'plik qildi (O.Yoqubov). Bunday modeldagi qo'shma gaplarning qismlari shakl jihatidan ham, umumiy ma'no jihatidan ham biri ikkinchisiga zid bo'ladi. Zidlik ma'nosi predikativ

birliklarning o‘zaro munosabati orqali yuzaga chiqadi.

2. Qiyos ma’no munosabati:

Ming yillarkim bulbul kalomi

O‘zgarmaydi, yaxlit hamisha,

Ammo sho‘rlik to‘tining holi

O‘zgalarga taqlid hamisha. (A.Oripov).

Ushbu bog‘langan qo‘shma gapda ikki predmet: bulbul va to‘ti bir-biriga qiyoslanayapti. Shuning bilan birga, ikki komponent o‘rtasida zid ma’no munosabati ham yo‘q emas: bulbul va to‘tining xatti-harakatlari o‘zaro zid, ya’ni bulbul o‘z xonishiga, o‘z ovozigaga ega, to‘ti bo‘lsa doim boshqalar ovozigaga taqlid qilib yashaydi. Gapda bulbulning kalomi to‘tining holidan bir necha barobar ortiqligi ta’kidlangan. Demak, yuqorida keltirilgan qo‘shma gapda «zidlik» ma’nosi ostiga birlashgan ma’nolardan – qiyos ma’no munosabati ifodalangan.

Quyidagi misolda ham xuddi shunday holatni kuzatish mumkin:

Garchi fano har kimsaga

Azaliy bir qismatdir.

Lekin ona, tiriklik ham

Bilsang, yarim hikmatdir. (A.Oripov).

Bu bog‘langan qo‘shma gap qismlari ham o‘zaro qiyoslanayapti. Birinchi sodda gapdagi fanoning har kimsaga azaliy bir qismatligiga ikkinchi sodda gapdagi tiriklikning yarim hikmatligi qiyos qilinyapti hamda tiriklikning o‘limdan afzal ekanligi ta’kidlanayapti. Aytish mumkinki, ikki komponent o‘rtasidagi zidlik ma’nosi bilan bog‘langan qiyos ma’no munosabatlarining mavjudligi sintaktik polisemiyaning gap modellariga xos ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi.

3. To‘siqsizlik ma’no munosabati.

Xobgohda talay odam bor edi, biroq Bobur mijjalarida yiltiragan tomchilarni ipak chorsi bilan artishdan istihola qilmadi. (X.Sultonov).

Ta'kidlash joizki, bunday modeldagi bog'langan qo'shma gaplar zid ma'no munosabati bilan bog'langan to'siqsizlik ma'nosini ham ifodalaydi.

Avvalo, ikki komponentdagi voqea-hodisa – xobgohda talay odamning borligi va Boburning yig'lashi bir-biriga zid. Ikkinchi hodisaning yuzaga kelishiga birinchi voqeaning mazmuni zid bo'lsa ham, to'siq bo'la olmadi, ya'ni *Xobgohda talay odam bor bo'lsa ham, Bobur mijjalari yiltiragan tomchilarni ipak chorsi bilan artishdan istihola qilmadi.*

Yoki quyidagi misolga diqqatni qarataylik.

Bu sohaning ustod komili, albatta, o'z so'zini aytar, lekin biz o'ylagan imorat, taxminan, shu shaklda bo'lishi kerak. (Oybek).

Bu bog'langan qo'shma gapda ham zid va to'siqsizlik ma'no munosabatlari ifodalangan. Ushbu gapni to'siqsiz ergash gapli qo'shma gapga transformatsiya qilsak, aytilgan fikr yanada oydinlashadi: *Bu sohaning ustod komili o'z so'zini aytsa ham, biz o'ylagan imorat, taxminan, shu shaklda bo'lishi kerak.*

4. Shart munosabati:

Zidlov bog'lovchili bog'langan qo'shma gaplarda ham zidlik, ham shart ma'no munosabati ifodalanishi mumkin. Bunda ikkinchi komponentdagi voqea-hodisa birinchi komponentdan anglashilgan ish-harakatning qanday shart bilan bajarilishini bildiradi:

Sizga bir narsani ko'rsataman, lekin kinoga olmaysiz! (Sh.Xolmirzaev).

5. Izoh munosabati:

Zidlov bog'lovchilari yordamida bog'langan qo'shma gaplarda izoh ma'no si ham ifodalanadi.

Yozu qish dalada «javlon uramiz»

Sening so'zing bilan aytganda

Paxtakor kasbining shox-butog'i yo'q,

Faqat mehnatimiz sal o'ziga xos. (E.Vohidov).

Bunda birinchi komponent (*Yozu qish dalada «javlon uramiz»*) ning izohi keyingi komponent (*Paxtakor kasbining shox-butog'i yo'q, Faqat mehnatimiz sal o'ziga xos*) orqali o'z ifodasiga ega bo'lgan.

Bo'lsa, esa so'zlari yordamida bog'langan qo'shma gaplarda polisemiya

Bog'lovchi vazifasida qo'llanuvchi *bo'lsa, esa* fe'llari ayrim bog'langan qo'shma gaplarning grammatik shakli sifatida kelib, qo'shma gap qismlarini semantik jihatdan ham, grammatik jihatdan ham o'zaro bog'laydi¹.

Bunday modeldagi qo'shma gaplar quyidagi ma'no munosabatlarini ifodalaydi:

1. Qiyos ma'no munosabati. Qiyos ma'no munosabati bu shaklning bosh ma'nosi hisoblanadi. Qolgan ma'nolar bevosita mana shu bosh ma'nodan o'sib chiqqan ma'nolardir.

Mazmuniy jihatdan qiyos ma'no munosabatini ifodalagan qo'shma gap predikativ birliklarida ishtirok etgan leksik birliklar ma'no jihatidan bir-biriga zid bo'ladi, ya'ni bunday gaplarning predikatlarida sintaktik antonimiya mavjud bo'ladi. Bu esa qiyos ma'no munosabatini ifodalovchi bog'langan qo'shma gaplarning grammatik shakli *bo'lsa* so'zi bo'lishini taqozo etadi².

Hammani kuldirdi, qiz esa faqat

Beparvo jilmayib o'tdi yonidan

U kuyladi mag'rur, qiz bo'lsa shu vaqt

Huzuriga keldi egib boshini (A. Oripov).

Farzandlari bir zulmat bo'lsa, ul zoti oliy misoli bir

¹ Абдурахмонов Ф. Қўшма гап синтаксиси асослари. –Т., 1958, 62-бет, Фуломов А.Ф., Аскарлова М.А. Ҳозирги замон ўзбек тили. Синтаксис. –Т.: Ўрта ва oliy мактаб. 1961, 169-бет.

² Нурмонов А., Маҳмудов Н., Аҳмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. –Т.: Ўқитувчи, 1992, 193-194-бетлар.

oftob edi. (O.Yoqubov).

Misollardan ko‘rinadiki, bunday gaplarda ikki predmet, ikki shaxs yoki ikki voqea-hodisa bir-biriga qiyoslanadi va bunday gaplarning predikativ birliklarida sintaktik antonimiya amal qiladi.

2. Zidlik ma‘no munosabati:

Qismlari *bo‘lsa, esa* so‘zlari bilan bog‘langan qo‘shma gaplar, yuqorida ham aytib o‘tganimizdek, qiyos ma‘no munosabatini ifodalaydi. Ba‘zan bunday modeldagi qo‘shma gaplarda qiyos ma‘nosi bilan bog‘langan zidlik ma‘nosi ham ifoda etiladi. Masalan, *Ikkita shoirimiz bor, rayon gazetasi esa ikkovini ham tan olmaydi.* (A.Qahhor).

Keltirilgan misolda qiyoslanayotgan shaxslar: ikkita shoir va rayon gazetasida ishlovchi odamlar. Qiyos ma‘nosi bilan birga, bu gapda zidlik ma‘no munosabati ham ifodalangan. Buni gapni transformatsiya qilib aniqlash mumkin. *Ikkita shoirimiz bor, lekin rayon gazetasi ikkovini ham tan olmaydi.* Demak, gapda zidlik ma‘nosi asosiy ma‘no hisoblanib, qiyos ma‘nosi xiralashgan tarzda namoyon bo‘lgan.

3. Izoh ma‘no munosabati:

Bo‘lsa, esa so‘zlari yordamida bog‘langan qo‘shma gaplarda ba‘zan mazmuniy jihatdan qiyos ma‘nosi bilan bog‘liq holda izoh ma‘nosi ham ifodalanadi. Misollarga murojaat etaylik:

Olmalar kichkina-kichkina, o‘riklar esa haligacha g‘o‘ra (O.Yoqubov).

Yer xazina bo‘lsa, suv oltindir (Maqol).

Tabiat saharda misli bir g‘uncha

Tong esa g‘unchaning ochilgan chog‘i (Uyg‘un).

Mazmuniy jihatdan izoh ma‘no munosabatini ifodalagan bog‘langan qo‘shma gaplarning predikativ birliklarida ishtirok etgan leksik birliklarda ma‘no mutanosibligi mavjud bo‘ladi, komponent kesimlari, ko‘pincha, sinonim so‘zlar bilan ifodalanadi yoki predikatlarda sintaktik sinonimiya mavjud

bo'ladi¹.

-u, -yu, -da yuklamalari yordamida bog'langan qo'shma gaplarda ko'p ma'nolilik

-u, -yu, -da yuklamalari qo'shma gap qismlarini tenglik yo'li bilan bog'laydi, ya'ni *va* bog'lovchisining ekvivalenti vazifasini bajaradi.

-u, -yu, -da yuklamalari yordamida bog'langan qo'shma gaplar ham, yuqorida ta'kidlanganidek, polisemantik xususiyatga ega. Bunday modeldagi bog'langan qo'shma gaplarda quyidagi ma'no munosabatlari yuzaga chiqadi:

1. Bu yuklamalar ketma-ket sodir bo'lgan voqea-hodisalarning ifodasi bo'lgan bog'langan qo'shma gap tarkibida kelib, qo'shma gap qismlarini tenglik yo'li bilan bog'laydi.

Eshik g'irch etib ochildi-da, ruxsat so'rab ukasi Darveshali kirdi. (Oybek).

Tuxumdan chiqdi-yu, keltirib uni

Shu loyqa hovuzga tomon otdilar (A. Oripov).

Keltirilgan misollarda birin-ketin ro'y bergan voqea-hodisalar ifodalangan bo'lib, bu bunday modeldagi bog'langan qo'shma gaplarga xos bo'lgan bosh ma'nodir. Bunday modeldagi qo'shma gaplarda voqea-hodisalarning ketma-ket ro'y berishi ma'nosi bilan bog'langan holda sabab-natija, taxmin, faraz, ziddlik, xohish-istak ma'no munosabatlari ham ifodalanadi. Bundan tashqari, ikki ketma-ket ro'y bergan voqea-hodisaning ro'y berishidagi vaqtning juda qisqa ekanligini ifodalashda ham

¹ Нурмонов А., Махмудов Н., Ахмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. –Т.: Ўқитувчи, 1992, 193-бет.

bu yuklamalardan foydalaniladi.

2. Sabab-natija munosabati:

Urush bo'ldi-yu, zamona o'zgarib ketdi.

(O'.Hoshimov).

Bu gapda ifodalangan birinchi voqea (urush bo'ldi) ikkinchi voqeaning sodir bo'lishiga (zamonaning o'zgarib ketishiga) ham asos bo'lgan va bu voqealar ketma-ket sodir bo'lgan. Demak, ikkinchi voqea ifodasi bo'lgan ikkinchi komponent mantiqan birinchi voqea ifodasi bo'lgan birinchi komponentga tobe. Grammatik jihatdan esa qo'shma gap qismlari teng aloqaga kirishgan.

Quyidagi misollarda ham sabab-natija munosabati ifodalangan:

Shu kasbni orttirdi-yu, ishqibozlari ko'payib qoldi.

(O'.Umarbekov). ***Dashtda o'gaylarday sovuq chaqnagan osmon endi o'z farzandiga qaragan onaday birdan muloyimlashdi-yu, borliq bo'lakcha bir mayinlik kasb etdi.*** (O.Yoqubov).

3. Taxmin-faraz ma'nosi:

Tag'in, yo'lda biror bir falokat yuz beradi-da, barimiz juvonmarg o'lib ketamiz. (T.Murod).

Keltirilgan misolda ham birin-ketin ro'y berishi mumkin bo'lgan voqea-hodisalar taxmin, faraz yo'li bilan ifodalangan. Gapda birinchi voqea ikkinchi voqeaning yuzaga chiqishiga taxminiy asos bo'ladi. Qo'shma gap qismlari grammatik jihatdan teng aloqaga kirishgan bo'lsa-da, semantik jihatdan ular biri ikkinchisiga tobe, ya'ni birinchi komponentga ikkinchi komponent tobe. Demak, yuqoridagi gapda voqealarning ketma-ket sodir bo'lishi ma'nosiga taxmin, faraz ma'nosi uyg'unlashgan.

4. Xohish-istak ma'nosi:

Tezroq jang bo'lmadi-yu, shahzodani bir ko'rmadi!..

Bunday modeldagi qo'shma gap predikatlarining har ikkalasi ham inkor shaklda bo'ladi. Lekin gapning umumiy mazmunidan xohish-istak o'ttenkasi anglashilib turadi.

Ikki ketma-ket ro'y bergan voqea-hodisaning yuzaga kelishidagi vaqt oralig'ining nihoyat darajada qisqa ekanligini ifodalashda ham **-u, -yu, -da** yuklamalari faol ishtirok etadi. Masalan: ***Ustodning g'am-anduhga to'la ovozi favqulodda titrab ketdi-yu, Ali qushchi gustohlik qilganini sezib, labini tishladi.*** (O.Yoqubov). ***So'nggi so'zlarni aytayotganda cholning ovozi tahdid bilan yangradi-yu, Ali qushchi beixtiyor seskanib ketdi.*** (O.Yoqubov).

Bunday gaplarda **-u, -yu** yuklamalari **va** bog'lovchisining sinonimi sifatida ketma-ket yuzaga kelgan va biri ikkinchisiga bog'liq bo'lgan voqea-hodisalarni o'zaro tenglik yo'li bilan bog'laydi. Yuqoridagi misollarda semantik jihatdan tobelik mavjud, ya'ni ikkinchi komponent ifodasi bo'lgan ikkinchi voqealar mantiqan birinchi komponent ifodasi bo'lgan birinchi voqealarga tobe. Yoki boshqacha qilib aytganda, birinchi voqealar ikkinchi voqealarning yuzaga kelishiga asos bo'lgan. Ikki voqea-hodisaning yuzaga kelishidagi vaqt oralig'i nihoyatda qisqa. Bunda ikkinchi voqea birinchi voqea ro'y bergandan so'ng lahza o'tmay sodir bo'lgan.

5. Zidlik ma'no munosabati ifodalanadi:

Ona yuragiga botdi-yu tikan

Taniga bir narsa yugurdi iliq (S.Zunnunova).

Keltirilgan gapda **-yu** yuklamasi **va** bog'lovchisining ekvivalenti sifatida grammatik shakl vazifasini bajargan. Bog'langan qo'shma gap qismlari tenglanish yo'li bilan sintaktik aloqaga kirishgan. Bu gapda ham ketma-ket sodir bo'lgan voqea-hodisalar ifodalangan. Avval sodir bo'lgan voqea-hodisa: ***Ona***

yuragiga botdi-yu tikan: keyin sodir bo'lgan voqea-hodisa: *Taniga bir narsa yugurdi iliq*. Bu gapda zidlik ma'no munosabati ham ifodalangan. Zidlik ma'nosi, asosan, qismlar tarkibidagi *tikan* va *iliq bir narsa* so'zlari orqali yuzaga chiqqan. Gapni birlashtiruv bog'lovchili bog'langan qo'shma gapga transformatsiya qilish mumkin. *Ona yuragiga tikan botdi va taniga iliq bir narsa yugurdi*.

-u, -yu bog'lovchilari zidlov bog'lovchilariga ekvivalent sifatida qo'llangan qo'shma gaplarda zidlik, to'siqsizlik va qiyos ma'nolari ifodalanadi.

Qo'llar qadog'i boru, ish adog'i yo'q (E.Vohidov).

Dardning kelishi osonu, ketishi qiyin (M.Qoriyev).

Mazkur gap qismlarida bir-biriga zid ma'nolar ifodalangan.

Endi quyidagi bog'langan qo'shma gapga e'tibor beraylik: *O'zim jannatda-yu, do'zaxda ko'nglim* (M.Yusuf). Bu gapda to'siqsizlik ma'no munosabati ifodalangan. Ushbu gapni to'siqsiz ergash gapli qo'shma gapga transformatsiya qilsak, fikr oydinlashadi. *O'zim jannatda bo'lsam ham, ko'nglim do'zaxda*.

Qismlari zidlov bog'lovchisiga ekvivalent bo'lgan *-u, -yu* yuklamalari orqali bog'langan qo'shma gaplarda qiyos ma'no munosabati ham ifodalanadi. Masalan, *Sen achchiq'u men ham novvot emasman* (M.Yusuf). Ushbu gapning boshqacha variantini qo'llasak, aytilgan fikrga aniqlik kiritgan bo'lamiz: *Sen achchiq bo'lsang, men ham novvot emasman*.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, teng bog'lovchilar va ularga vazifadosh bo'lgan shakllar yordamida bog'langan qo'shma gaplar ko'p ma'nolilik xususiyatiga ega bo'ladi.

Qismlari va bog'lovchisi orqali bog'langan qo'shma gaplarda bir paytda sodir bo'lgan va biri ikkinchisiga bog'liq

bo'lmagan voqea- hodisalar; bir paytda sodir bo'lgan va biri ikkinchisiga bog'liq bo'lgan voqea-hodisalar; ketma-ket ro'y bergan voqea-hodisalar, sabab-natija munosabati hamda umumiy izoh munosabati ifodalanadi.

Qismlari zidlov bog'lovchilari orqali birikkan qo'shma gaplarda zidlik ma'nosiga bog'liq bo'lgan qiyos, izoh, shart, to'siqsizlik munosabatlari ifodalanadi.

Qismlari *bo'lsa, esa* so'zlari yordamida bog'langan qo'shma gaplar ham ko'p ma'nolilik xususiyatini namoyon etib, bunday modeldagi qo'shma gaplarda qiyos ma'nosi asosida yuzaga kelgan zidlik, izoh ma'no munosabatlari o'z aksini topadi.

-u, -yu, -da yuklamalari va bog'lovchisining ekvivalenti vazifasini bajarganda, mazkur shakllar yordamida bog'langan qo'shma gaplarda voqea-hodisalarning ketma-ket ro'y berishi ma'nosi va shu ma'no bilan bog'langan quyidagi ma'nolar ifodalanadi: sabab-natija, taxmin, faraz, zidlik, xohish-istak ma'nolari. Shuningdek, ikki ketma-ket ro'y bergan voqea-hodisaning yuzaga kelishidagi vaqt oralig'ining nihoyat darajada qisqa ekanligini ifodalashda ham *-u, -yu, -da* yuklamalari faol ishtirok etadi.

-u, -yu bog'lovchilari zidlov bog'lovchilariga ekvivalent sifatida qo'llangan qo'shma gaplarda zidlik, to'siqsizlik va qiyos ma'no munosabatlari mavjud bo'ladi.

Ergash gapli qo'shma gaplarda ko'p ma'nolilik

Ergashtiruvchi bog'lovchilar, asosan, qo'shma gaplar tarkibidagi ergash gaplarni bosh gapga bog'lash uchun ishlatiladi. Sintaktik bog'lovchilar sirasiga kiruvchi *-ki, -sa, -b, (-ib) – guncha, -gach, -ganda, -may, -mi* kabi shakllar polisemantik

xarakterda bo‘lib, turli xil ma‘no anglatuvchi konstruksiyalar (ergash gapli qo‘shma gaplar) hosil qiladi. Voqealar o‘rtasidagi mazmuniy munosabatning ifodalanishi va belgilanishida bog‘lovchi va bog‘lovchi vositalarning o‘rni benihoya muhimdir. Bu bog‘lovchi vositalar o‘z mazmuniga ko‘ra muayyan munosabatga kirishayotgan voqealarni faqat bog‘lash uchun xizmat qilmaydi, balki bunga qo‘shimcha ravishda yana turli modal ma‘nolar, so‘zlovchining subyektiv munosabatlarining ifodalanishi uchun ham ko‘mak beradi¹.

Qismlari –ki bog‘lovchisi orqali bog‘langan ergash gapli qo‘shma gaplarda polisemiya

Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilida eng ko‘p ishlatiladigan bog‘lovchilardan biri aniqlov bog‘lovchisi **-ki, (-kim)** dir. Bu bog‘lovchi sodda gaplar orasidagi turli ma‘no munosabatlarini ifodalash uchun qo‘llanadi.

-ki bog‘lovchisi ega, kesim, aniqlovchi, to‘ldiruvchi, payt, sabab, natija, o‘xshatish ergash gaplarini bosh gap bilan bog‘lab, biror voqea-hodisa yoki uning belgisini kuchaytirish, ta‘kidlash maqsadida qo‘llanib, umumiylik xususiyatiga ega bo‘ladi. Qanday ma‘no ottenkalarining ta‘kidlanishi, kuchaytirilishi jihatidan farqli belgilarga ega bo‘lishi esa uning xususiy belgilari hisoblanadi. Bu ta‘kidlangan farqli belgilar quyidagilardan iborat:

a) payt ma‘nosi kuchaytiriladi, ta‘kidlanadi.

Mana olti oy bo‘ldiki, shu osoyishtalik buzildi. Otangiz kelibdiki, shu janjal davom etadi (S.Ahmad). Shayxulislom gapini tugatmagan ham ediki, tashqarida ot tuyoqlarining dupuri, posbonlarning tahdidli ovozlari eshitildi (O.Yoqubov);

b) biror shaxs yoki predmetga xos bo‘lgan belgi ma‘nosi kuchaytiriladi.

¹ Нурмонов А., Махмудов Н., Ахмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. –Т.: Ўқитувчи, 1992, 222-б.

Saltanat shunday bir tilsim ekanki, mavlono, uni qo'lda tutmoq uchun kishi, avvalo, qo'lidagi inon-ixtiyorida xalos bo'lmog'i lozim ekan (X.Sultonov);

v) sabab ma'nosi ta'kidlanadi. *Siz borsizki, muhabbat ham bor* (M.Yusuf). *Omon bo'l, sen borki, dunyolar unut* (M.Yusuf);

g) to'siqsizlik ma'nosini yuzaga chiqaradi. *Qush tinadiki, sen tinmaysan* (So'zlashuv nutqidan). *Kech kirib, tong otdiki, undan darak yo'q* (Ertakdan);

d) natija ma'nosini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. *Toshni kuch bilan muzga shunday urdiki, muz qarsillab ketdi-yu, o'tovday joyi o'pirilib tushdi* (O.Yoqubov);

y) voqea yoki predmetlarni ayirib, ajratib ko'rsatish uchun qo'llanadi. *Shunisi qiziqki, hali kelmasdan burun ketish g'amiga tushasiz* (A.Qahhor). *Lekin biror kimsa bilmaydiki, men ham asli shu yog'och taxtga qaramman, mana shu yaltiroq tojga qulman* (H.Sultonov);

j) o'xshatish, qiyos ma'nolarini yuzaga chiqaradi.

Mashrabga shunday tuyuldiki, bular archa emas, balki oq ro'moldan chiroyiga chiroy qo'shilgan suluv kelinchaklar (O.Yoqubov).

Fe'ning shart mayli shakli orqali bog'langan ergash gapli qo'shma gaplarda ko'p ma'nolilik

Fe'ning shart mayli shakli hisoblangan *-sa* uzvi ergash gapli qo'shma gaplar tarkibida faol ishtirok etadi. *-sa* shaklining ergash gapli qo'shma gaplardagi bosh vazifasi shart ergash gaplarni bosh gapga bog'lash va shart ma'nosini yuzaga chiqarishdir. Shuningdek, bu shakl ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi, o'lchov-daraja, sabab, payt, o'rin ergash gaplarni ham bosh gapga bog'lash uchun qo'llanadi. Demak, uning funktsiya doirasi kengayadi.

-sa shakli orqali birikkan ergash gapli qo'shma gaplarda quyidagi ma'nolar ifodalanadi:

1. Shart ma'nosi. Shart ma'nosi bunday modeldagi qo'shma gaplarning asosiy, bosh ma'nosi hisoblanadi. Qolgan ma'nolar shart ma'nosi asosida yuzaga kelgan.

Oting yaxshi va bilagingda kuch serob bo'lsa, sen ham uloqning piri bo'lasan (A.Qodiriy). *Endi qolgan otlar bilan tezda Xalachga yetib olmasak, otlar xo'raksiz, suvsiz halok bo'ladi* (Mirmuhsin).

Keltirilgan qo'shma gaplarning mazmuni bevosita shart munosabatidan iborat. Har ikki ergash gapli qo'shma gapning birinchi qismi shartni ifodalab, keyingi ikkinchi gaplardagi voqea-hodisalar birinchi gaplardagi voqea-hodisalar ro'y bergan holda yuzaga keladi.

2. Payt ma'nosi (shart ma'nosi bilan bog'liq holda). *Ular kashf etgan haqiqat quyoshlari yurtimiz samosini nurga to'ldirsa, maqsadimizga yetgan bo'lurmiz* (Oybek). Keltirilgan gapda, asosan, payt ma'nosi ifodalangan. Bu gapni quyidagi gapga transformatsiya qilsak, aytilgan fikr yanada oydinlashadi: *Ular kashf etgan haqiqat quyoshlari yurtimiz samosini nurga to'ldirgan paytdagina biz maqsadimizga yetgan bo'lurmiz*. Shuningdek, bu misolda shart ma'nosi ham mavjudligi seziladi. *Bizning maqsadimizga yetishimiz uchun ular kashf etgan haqiqat quyoshlari yurtimiz samosini nurga to'ldirishi shart*.

Quyidagi gaplarda ham shart ma'nosi bilan bog'langan payt ma'nosi o'z aksini topgan: *Birdan tiqiladi bo'g'zimga g'ussam, go'daklar o'ynasa bu yerga kelib* (X.Davron). *Onang qarisa – cho'ringni yo'qot, otang qarisa – qulingni* (N.Aminov). Lekin bu gaplarda shart ma'nosi sezilmas holga kelib qolgan. Shunday bo'lsa-da, payt ma'nosi shart ma'nosi asosida yuzaga

kelgan.

3. Sabab ma'nosi. Ba'zan *-sa* shakli yordamida bog'langan ergash gapli qo'shma gaplarda shart ma'nosi bilan bog'liq holda sabab ma'nosi ham yuzaga chiqadi. Bunda bosh gapda ifodalangan voqeaning sodir bo'lishiga ergash gapda ifodalangan voqea sabab bo'ladi va ikkinchi voqeaning yuzaga chiqishi uchun birinchi voqeaning ro'y berishi shart ekanligi ham ta'kidlanadi. *Yurtim kamoli ilhom bermasa, Men yoza olmasdim ushbu dostonni* (Uyg'un).

Gapda ifodalangan sabab ma'nosi – *Yurtim jamoli ilhom berganligi sababli men ushbu dostonni yozdim.*

Gapda ifodalangan shart ma'nosi – *Ushbu dostonni yozishim uchun yurtim jamoli ilhom berishi shart, bo'lmasa yoza olmayman.*

4. Zidlik ma'nosi.

Aytay desam, tilimga so'z kelmasdi (Gazetadan).

Bu gapda shart ma'nosi bilan birga zidlik ma'nosi ham ifodalangan. Uni quyidagi gapga transformatsiya qilsa bo'ladi: *Aytishim shart, lekin tilimga so'z kelmasdi.* Ergash gap va bosh gapda ifodalangan voqea-hodisalar mantiqan bir-biriga zid. Shuningdek, gapda xiralangan shart ma'nosi ham mavjud.

5. Natija ma'nosi: *Siz jaholat tig'ini sindirmasangiz, birodarlaringiz nomussizlik botqog'iga kun sayin chuqurroq botaversalar, bu yurtida hayot o'chog'i sovrilur* (Oybek). Bunda birinchi va ikkinchi komponent ma'nosidan anglashilgan voqea-hodisa natijasida uchinchi komponentda ifodalangan voqea-hodisaning ro'y berishi ta'kidlangan. Uni quyidagi gapga transformatsiya qilib aniqlash mumkin: *Siz jaholat tig'ini*

sindirmasangiz, birodarlaringiz nomussizlik botqog'iga kun sayin chuqurroq botaversalar, oqibatda (yoki natijada) bu yurtida hayot o'chog'i sovrilur. Shuningdek, uchinchi gapda ifodalangan voqeaning sodir bo'lishiga birinchi va ikkinchi gapda ifodalangan voqea asos yoki shart ekanligi ta'kidlangan.

6. Biror bir shaxs yoki predmetga xos **belgi ma'nosi** ko'rsatiladi. *Bu itlar hovli sahnidan bitta kapalak o'tsa, bir hafta vovullaydi* (G'.G'ulom). *Samarqandda bir yo'talsam, buning zarbidan yorilardi xalifayi Bog'dodning o'ti* (M.Shayxzoda).

Keltirilgan misollarda ifodalangan belgi ma'nosini gaplarni transformatsiya qilib aniqlash mumkin. *Bu shunday itlarki, ular hovli sahnidan bitta kapalak o'tsa, bir hafta vovullaydi. Yoki Men shunday insonmanki, bir yo'talimdan Bog'dod xalifasining o'ti yoriladi.*

7. Biror bir faoliyatga undash natijasida aks holat yuz berganda qilinishi lozim bo'lgan **harakat ma'nosi**ni ifodalaydi. *Agar Tursunboy ko'nmasa, uni o'zim tutib beraman* (S.Ahmad). *So'ragin, agar u javob bermasa, yoshlar oqizmagin aslo ko'zingdan* (X.Davron).

Bu gaplarda ham ta'kidlangan ma'noga shart ma'nosi uyg'unlashgan. Chunki ikkinchi komponentlarda ifodalangan voqea-hodisalarning yuzaga chiqishi uchun birinchi komponentlarda ifodalangan voqea-hodisaning yuz berishi shart.

8. To'siqsizlik ma'no munosabati. Qismlari *-sa* shakli orqali bog'langan ergash gapli qo'shma gaplarda mantiqan to'siqsizlik ma'no munosabati ham ifodalanadi: *-sa* shaklining bu ma'nosini quyidagi misol bilan asoslash mumkin: *O'zi ko'rmasa, bolalari ko'rar yorug'likni* (Oybek). Darhaqiqat, bu gapni to'siqsiz ergash gapli qo'shma gapga transformatsiya qilsak,

aytilgan fikr yanada oydinlashadi: *O'zi ko'rmasa ham, bolalari ko'rar yorug'likni*. Bunday xususiyatni *Oltin qafas ichra gar gizil gul butsa, Bulbulga tikandek oshiyon bo'lmas emish* (A.Navoiy) gapi misolida ham ko'rish mumkin.

Qismlari *-sa* shart mayli shakli orqali bog'langan ergash gapli qo'shma gaplar qiyos ma'nosi ifodalangan gaplardan mantiqan farqlanadi. Masalan: *Harorat toshdan gul undirsa, ayoz uni qirov g'uborlariga o'rab yana toshga aylantiradi* (Sh.Rashidov). Bu gap shakl jihatidan ergash gapli qo'shma gaplarga o'xshasa ham, aslida bog'langan qo'shma gapdir. Yuqoridagi gapni *Harorat toshdan gul undiradi, ayoz esa uni qirov g'uborlariga o'rab yana toshga aylantiradi* tarzida o'zgartirish mumkin. Bunda ham qiyos ma'nosi mavjud. Shuning uchun bunday modeldagi gaplar shart ma'nosi bosh ma'no sifatida ifodalangan yuqoridagi gaplar bilan omonimik munosabat hosil qiladi. Ular o'rtasida ma'no bog'lanishi yo'q.

Sintaktik polifunksionallik bir konstruksiyaning bir necha makrokonstruksiyalar tarkibida har xil funksional qismlar vazifasida kela olishi deb izohlanadi. Polifunksionallik natijasida polisemiya ham, omonimiya ham yuzaga kelishi mumkin. Biz yuqorida ko'rib o'tgan *-sa* shart mayli ham polifunksional, ham polisemik, ham omonimik xususiyatga ega. Bu shaklning ega, kesim, to'ldiruvchi, shart va hokazo ergash gaplarni bosh gapga bog'lashi, ya'ni turli funksiyalar bajarishi uning polifunksionalligi hisoblanadi. Mazkur shakl yordamida birikkan ergash gapli qo'shma gaplarda turli (payt, sabab, shart, to'siqsizlik va boshqa) ma'no munosabatlarining ifodalanishi polisemantizmdir. Agar bu shakl yordamida hosil bo'lgan sintaktik konstruksiyalar o'rtasida hech qanday ma'no bog'lanishi bo'lmasa, ular omonimik munosabatga kirishadi (shart va qiyos ma'nolari).

Qismlari *-mi* shakli orqali bog‘langan ergash gapli qo‘shma gaplarda polisemiya

Qismlari *-mi* qo‘shimchasi orqali bog‘langan ergash gapli qo‘shma gaplar ham polisemantiklik xussiyatiga ega bo‘ladi. Bunday modeldagi qo‘shma gaplarda quyidagi ma‘no munosabatlari ifodalanadi:

1. Taxmin ma‘nosi: *Bola biror narsa chaqib oldimi, birdan g‘ingshib yig‘lab yubordi. Kechasi eshik ochilib qolganmi, ertalab tursam, burnim berk* (Sh.Xolmirzayev).

2. Taxmin ma‘nosi bilan bog‘langan o‘xshatish ma‘nosi. *Oyoqlari yerga yopishib qoldimi, sira qimirlay olmadi* (O‘Hoshimov). Bu gapning ikkinchi komponenti tarkibida ishtirok etishi lozim bo‘lgan kishilik olmoshi (u) implitsit tarzda ifodalangan. Bu gapdagi o‘xshatish ma‘nosini gapni transformatsiya qilib, aniqlasa bo‘ladi. *Oyoqlari yerga yopishib qolgandek, u sira qimirlay olmadi.*

3. Taxmin ma‘nosi bilan bog‘langan sabab ma‘nosi. *Dam olish kuni bo‘lgani uchunmi, ko‘chalar bugun nihoyatda gavjum* (S.Zunnunova). *Darvesh g‘udurlab gapirgani uchunmi, Mirzo Ulug‘bek uning so‘zlariga arang tushundi* (O.Yoqubov).

Ba‘zan qismlari *-mi* shakli orqali bog‘langan ergash gapli qo‘shma gaplarning bosh gapi ma‘lum voqea-hodisasi tinglovchiga eslatish uchun ham xizmat qiladi: *Qishloqchilik emasmi, pulni shundoq stulga qo‘yib ketibman-da* (S.Ahmad).

Ergash gapli qo‘shma gaplar ustida olib borgan tadqiqotlarimiz shuni ko‘rsatadiki, bunday gaplarda bog‘lovchi vazifasini bajaruvchi *-mi* shakli ba‘zan shart mayli qo‘shimchasiga ekvivalent sifatida ham qo‘llanadi.

-mi shakli **-sa** qo'shimchasining ekvivalenti sifatida qo'llangan ergash gapli qo'shma gaplarning asosiy ma'nosi shart ma'no munosabatidir. *Intizom buzildimi, ishda unum bo'lmaydi, yoki Ozig'i balomi, unga ne davo?* (Yusuf xos Hojib). Bu gaplarni shart ergash gapli qo'shma gapga transformatsiya qilsak, aytilgan fikrga aniqlik kiritgan bo'lamiz. *Intizom buzilsa, ishda unum bo'lmaydi. Ozig'i balo bo'lsa, unga davo yo'q.*

Bunday modeldagi qo'shma gaplar ham polisemantiklik xususiyatiga ega bo'lib, ularda shart ma'nosi bilan bog'langan quyidagi ma'nolar yuzaga chiqadi:

1. **Payt ma'nosi.** *Bahor keldimi, dalada ish qiziydi* (So'zlashuv nutqidan). *Kodeks chiqdimi, demak, bas, odamlar unga amal qiladi* (Sh.Xolmirzayev). *Qalam ushladimmi, demak - o'yin bas* (M.Yusuf).

2. **To'siqsizlik ma'nosi.** *Saida telefonga javob beradimi, o'tgan-ketgan odam bilan nuomala qiladimi, boshidan xayol arimay qo'ydi* (A.Qahhor)

3. **O'rin ma'nosi.** *Ariqdan o'tdingmi - u yog'i g'o'za* (M.Yusuf).

Xullas, ergash gapli qo'shma gaplar ham ko'p ma'nolilik xususiyatiga ega bo'ladi.

Qismlari **-ki** bog'lovchisi orqali birikkan ergash gapli qo'shma gaplar uchun kuchaytirish, ta'kid ma'nolari umumiy ma'no hisoblanib, uning farqlovchi ma'nolari quyidagilardir: bu shakl yordamida payt ma'nosi kuchaytiriladi, ta'kidlanadi; biror-bir shaxs yoki predmetga xos bo'lgan belgi kuchaytiriladi; sabab ma'nosi ta'kidlanadi; to'siqsizlik ma'nosi yuzaga chiqadi; natija ma'nosi ifodalanadi; o'xshatish, qiyos ma'nolari aks etadi, voqea yoki predmetlarni ayirib ko'rsatish uchun qo'llanadi.

Fe'ning shart mayli shakli orqali bog'langan ergash

gapli qo'shma gaplar shart va bevosita shart ma'nosi bilan bog'langan payt, sabab, zidlik, natija, belgi, to'siqsizlik, biror-bir faoliyatga undash natijasida aks holat yuz berganda qilinishi lozim bo'lgan harakat ma'nolarini ifodalaydi.

Qismlari *-mi* shakli orqali bog'langan ergash gapli qo'shma gaplar noaniqlik ma'nosi va mazkur ma'no bilan bog'langan taxmin, o'xshatish, sabab ma'nolarini ifodalaydi.

-mi shakli *-sa* qo'shimchasining ekvivalenti sifatida qo'llangan ergash gapli qo'shma gaplarning asosiy ma'nosi shart ma'no munosabatidir. Bunday modeldagi qo'shma gaplarda shart ma'nosi bilan bog'liq payt, to'siqsizlik, o'rin ma'nolari ifodalanadi.

SINTAKTIK POLISEMIYA HAMDA SINTAKTIK OMONIMIYA (O'XSHASHLIGI VA FARQI)

Sintaktik polisemiyaning tilning barcha sath hodisalarida, xususan, leksik polisemiya bo'lgani kabi, bir qator muhim nazariy masalalari bor. Shulardan biri sintaktik polisemiya va sintaktik omonimiya munosabati masalasidir. Yuqorida ham qisman aytilganidek, sintaktik polisemiya va sintaktik omonimiya hodisalarini farqlashda ba'zi mushkulliklar ham yo'q emas. Garchand sintaktik (grammatik) polisemiya va sintaktik omonimiya masalalari fanda kam o'rganilgan bo'lsa – da, ularni farqlashga bo'lgan har xil yondashuv va nuqtai nazarlar mavjud. Bunday yondashuvlarni ikki guruhga ajratish mumkin: a) atomar – semantik yondashuv; b) sistem - shakliy yondashuv.

Bu ikki xil yondashuv garchand polisemiya va omonimiyaning morfologik sathga xos ko'rinishlariga nisbatan qo'llangan bo'lsa – da, lekin ularning g'oya va tamoyillarini sintaktik sathga xos polisemiya va omonimiyani farqlashga ham tatbiq etish mumkin. Atomar – semantik yondashuv asoschilaridan biri B.A.Ilishdir. U o'z tadqiqotlarida morfologik polisemiya va morfologik omonimiyani ana shu yondashuv asosida farqlagan. Atomar – semantik yondashuvga ko'ra grammatik sathga xos polisemiya va omonimiyani belgilashdan oldin grammatik hodisalarning invariant ma'nolari aniqlab olinadi. Agar lisoniy shakllar (hodisalar) har qanday matn qamrovida invariant ma'nolariga ko'ra o'zaro tutashsa, u grammatik shakl polisemantik xarakterda bo'ladi; bordi – yu, har xil (turli xil) matnlar doirasida ular invariant ma'nolariga ko'ra tutashmasa, u holda bunday grammatik shakllar omonimik xarakter kasb etadi. Demak, grammatik (sintaktik) sathga xos polisemiya va omonimiya hodisalari grammatik shakllarning har xil invariant ma'nolarga ega bo'lishi (omonimiya) va mushtarak

invariant ma'nolarga ega bo'lishi (polisemiya) xususiyatlariga ko'ra farq qiladi. Atomar – semantik yondashuvning asosiy mohiyati ana shunda.¹

Sintaktik (grammatik) sathga xos polisemiya va omonimiya hodisalarini farqlashdagi sistem – shakliy yondashuv konsepsiyasi L.S.Barxudarov nomi bilan bog'lanadi. Bu konsepsiyaga ko'ra ayrim grammatik shakllarning har xil soz'lar guruhiga mansub bo'la olishi omonimiya deb qaraladi, grammatik shaklning so'zlarning bir guruhi qamrovidagi ma'no va vazifalari polisemiya sifatida tavsiflanadi.² Bunda grammatik birliklarning xususiy ma'nolari nazarada tutiladi. Ayni o'rinda shu narsa muhimki, xususiy ma'no va grammatik shakllarning vazifasi tushunchalari hamda ularning o'zaro munosabatini belgilash muhim nazariy ahamiyatga ega. Xususiy ma'no va funktsiya o'rtasida o'xshashlik (muvofiqlik) va farq (nomuvofiqlik)lar mavjud. Har qanday xususiy ma'no ayni o'rinda funktsiya ham bo'la oladi. Lekin har qanday grammatik shaklning funktsiyasi xususiy ma'no bo'la olmaydi. Ma'lum bir maqsadni ko'z'da tutuvchi funktsiya semantik xarakterdan tashqari, shakliy – grammatik (sintaktik) xarakter ham kasb etadi. Grammatik shakllarning funktsiyasi maqsadi va ishlatilish (amaliy) ko'lamiga ko'ra guruhlanadi.

Grammatik shakllarning xususiy ma'nosi ba'zan funksional – semantik mikromaydon tushunchasi bilan qorishadi (kesishadi). Bu tushunchalar tahlilning har xil yo'nalishlariga xosligi bilan farqlanadi. Grammatik shakllarning xususiy ma'nolari funksional – semantik mikromaydon tushunchasining ko'rinishlaridan biridir. Grammatik shakllarning morfologik asosi (yadrosi) funksional – semantik mikromaydonning foni sifatida amal qiladi. Shuning uchun ham funksional – semantik maydon tushunchasi grammatik shakllarning xususiy ma'nosi

¹ Маулер Ф.И. Грамматическая омонимия в английском языке. Часть I. – Орджоникидзе, 1977, -с.15-17,

² Маулер Ф.И. O'sha asar, 15-17-betlar.

tushunchasiga nisbatan keng qamrovlidir. Har qanday xususiy ma'no ma'lum bir funksional – semantik mikromaydon ixtiyoriga tortila olgani holda, har qanday funksional – semantik mikromaydon ma'lum bir grammatik shakllarning xususiy ma'nosi ixtiyoriga tortila olmaydi.¹

Tilning sintaktik (grammatik) sathga xos polisemiya va omonimiya hodisalari Y.I.Shendels tomonidan ham o'rganilgan. U bu hodisalarni til belgilarining dualizmi bilan bog'laydi. Til belgilarining mazmuniy jabhada birdan ortiq nuqtalarda tutashuvi polisemiya va omonimiyaga sabab bo'ladi. Tilning sinxron holatida o'zaro motivlangan mazmuniy aloqalar bilan xarakterlanuvchi belgilar polisemiya sifatida talqin etiladi; til belgilarining sinxron va diaxron planlarda o'zaro motivlanmagan mazmuniy aloqalarga ega bo'lishi omonimiya sifatida talqin etiladi.² F.I.Mauler Y.I.Shendelsning sintaktik (grammatik) polisemiya va sintaktik omonimiya xususidagi fikrini quvvatlagan holda, bu ikki hodisani assimetriyaning ko'rinishlari sifatida e'tirof etadi. Grammatik polisemiyaning ikki yoki undan ortiq ma'noviy birlik (ifodalanuvchi)ning biror bir holatda o'zaro farqlanmaydigan shakliy birlik (ifodalovchi) orqali yuzaga kelishi tarzida tushunsa, grammatik (sintaktik) omonimiyani til sistemasida har biri o'z differensial mazmuniy birligi (ifodalovchisi)ga ega bo'lgan ikki yoki undan ortiq ifodalovchining bir shakliy qiyofada to'qnashuvi sifatida tushunadi.³

Sintaktik polisemiya va sintaktik omonimiya tushunchalari A.L.Vasilyevskiy va D.A.Salkovalarning tadqiqotlarida ham farqlanadi. Masalan, A.L.Vasilyevskiy ko'p ma'nolilikka inson tiliga xos ijobiy xarakterdagi qusurlardan biri sifatida yondashib, ortiqchalik tushunchasi bilan bog'lanuvchi va ayni paytda unga qarama – qarshi bo'lgan hodisa deb qaraydi.

¹ Бондарко А.В. Грамматическая категория и контекст. –Л.: Наука, 1971, -с.106.

² Шендельс Е.И. О грамматической полисемии // Вопр.языкознания. 1962, № 3, -с.47

³ Маулер Ф.И. O'sha asar, 19-bet.

Polisemiyani o'zaro bog'liqlikdagi ikki yoki undan ortiq farqli ma'nolarni o'zida mujassamlashtirgan lisoniy belgi sifatida sharhlaydi, omonimiyani bir sintaktik qurilmaning bir vaqtda ikki yoki undan ortiq semantik guruhga mansub bo'lishi tarzida sharhlaydi.¹ Tadqiqotchi polisemiyaning ham, omonimiyani ham til belgisiga daxldor sintaktik konstruksiyaga nisbatlaydi. Sintaktik konstruksiyaga lug'aviy va morfologik birliklarga o'xshash ikki tomonlama (ifoda va mazmun planlariga ega bo'lgan) lingvistik birlik sifatida qaraydi. Sintaktik konstruksiyaning ifodalovchisi uning modeli bo'lib, bu modelda sintaktik qismlarning ma'lum bir izchilligi nazarda tutiladi. Sintaktik qismlar sintaktik sathga xos gomogen va geterogen birliklardan tashkil topadi. Har bir qism shartli belgi (simvol)lar orqali ifodalanadi. Sintaktik model ana shu shartli belgilar zanjiridan iborat bo'ladi. E'tirof etilishicha, ko'p ma'nolilik nutqda sintaktik konstruksiya variantlaridan birining va gap modeli leksik tarkibining manifestatsiyasi orqali vujudga keladi. Bunda sintaktik konstruksiya ikki xil mazmuniy qiymat kasb etadi va kommunikativ nuqson kontekst (matn) orqali barham topadi. Sintaktik konstruksiyalar konteksti (matni) deganda sintaktik butunlikning modeldan boshqa barcha qurilmasi tushuniladi.²

D.A.Salkova sintaktik polisemiya va sintaktik omonimiyani nemis tili faktlari asosida farqlaydi. Sintaktik ko'p ma'nolilik tilning imkoniyatdagi me'yorlariga asoslangan hodisa sifatida qaralib, bir modelda ikki yoki undan ortiq sintaktik ma'nolarning ifodalanishidir. Sintaktik omonimiya ham tilning sintaktik polisemiya bilan sathdosh hodisasi sifatida talqin etiladi. Bu ham tilning imkoniyatdagi me'yorlariga tayanadi: shakliy o'xshashlikka ega bo'lgan modellarda ifodalanadigan har xil ma'nolar va ularning konstruksiyasi sintaktik omonimiya sanaladi. Sintaktik omonimiya xususida D.A.Salkova yana shu

¹ Васильевский А.Л. Полисемия и омонимия конструкции с субстантивным сказуемым в современном английском языке. Автореф. дисс... канд. филол. наук. -М., 1962, с.2-3.

² Васильевский А.Л. Ko'rsatilgan asar, 3-bet.

narsani e'tirof etadiki, bu gapning til sathiga xos hodisa bo'lib, sintaktik modeldagi ba'zi konstituyentlarning tovush o'xshashligiga asoslanadi. Gapning nutq sathiga xos omonimligiga maxsus matniy (kontekstual) vositalar evaziga barham beriladi. Nutqda omonimiyaning barham topishi masalasi muhim va e'tiborli bo'lib, alohida tadqiq etishni talab qiladi.¹

Ayrim tilshunoslar grammatik polisemiya va grammatik omonimiyaning mustaqil mavjudligini, ularning farqini ham inkor etadilar, ya'ni polisemiya deganda omonimiyani ham tushunaveradilar (A.A.Potebnya, F.Danesh va boshqalar). Lekin inson tilini bor jozibasi bilan o'rganishni maqsad etuvchi nazariy tilshunoslik uchun polisemiya va omonimiyani farqlamaslik katta va jiddiy nuqson hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, grammatik (aniqrog'i, sintaktik) sathga xos polisemiya va omonimiyaga salbiy hodisalar sifatida yondashuvlar ham uchraydi. Bunday yondashuvga ko'ra grammatik polisemiya va grammatik omonimiyani tilning ifoda (shakliy) planiga xos «qashshoqlik» tarzida baholanadi. Chunonchi, ingliz tili tadqiqotchilaridan biri V.V.Burlakova sintaktik polisemiya va omonimiyani hodisalariga ana shunday munosabatda bo'ladi.²

Sintaktik polisemiya va sintaktik omonimiyani G.A.Zolotova tadqiqotlarida ham farqlanadi. G.A.Zolotova sintaksema atamasini an'anaviy nomlanishdagi gap bo'laklariga nisbatan ishlatadi hamda sintaktik omonimiyani va polisemiya hodisalarini ana shu tushuncha bilan bog'laydi, ya'ni omonimiyani ham, polisemiya ham sintaksemalarning shakldoshlik xususiyatiga tegishli bo'ladi. Lug'aviy va shakliy – grammatik xususiyati bir xil bo'lgan sintaksemalarning har xil vazifalarda (ma'nolarda) qo'llanishini omonimiyani sifatida baholaydi.,

¹ Салькова Д.Е. Некоторые вопросы омонимии и многозначности синтаксических конструкций. Автореф. дисс...канд.филол. наук. –М., 1967, -с.7; Салькова Д.Е. К определению синтаксической омонимии // Уч.зап. 1-МПТИИЯ им. М.Тореза. Т.37. –М., 1967, -с.323

² Бурлакова В.В. К вопросу о грамматической омонимии в современном английском языке // Исследования по английской филологии. Сб. ст. Изд-во ЛГУ, 1961, -с.37.

morfologik, kategorial – semantik, funksional – sintaktik xususiyatlariga ko‘ra bir xil sintaksemalarning har xil kategorial tagguruhlar hosil qila olish imkoniyati sintaktik polisemiya deb qaraladi.¹

F. Ubayevaning tadqiqotlarida shaklan bir xil bo‘lib, turli xil fikr anglatishga xizmat qiluvchi gaplar, gap bo‘laklari sintaktik omonimlar ekanligi qayd etiladi. Tadqiqotchi sintaktik omonimiyani ikki turga ajratadi: omonim gaplar, omonim bo‘laklar. Omonim gaplarning o‘zi yana uch turga ajratiladi. Omonim sodda gaplar, omonim qo‘shma gaplar va omonim ergash gaplar.²

Xullas, sintaktik polisemiya va sintaktik omonimiya o‘zaro o‘xshash, shuningdek, farqli belgilarga ham ega bo‘lgan ikki hodisadir. Ularning tilda mavjud bo‘lishi va amal qilishi shakl va mazmun nomutanosibligini keltirib chiqaradi. Har ikki hodisa ham tejamlilik tamoyili asosida yuzaga chiqadi. Sintaktik polisemiya ham, sintaktik omonimiya ham shakldoshlik xususiyatiga ko‘ra paradigmatic nomutanosiblik hosil qiluvchi hodisalar sirasiga kiradi.

Sintaktik polisemiya bu ma’nolari o‘zaro bog‘liq va biri ikkinchisini taqozo etuvchi, bir invariant ma’no doirasida tutashuvchi o‘ziga xos lisoniy hodisadir.

Shaklan o‘xshash sintaksemalar biror bir ma’no doirasida o‘zaro tutashmasa, ular har xil invariant ma’nolarga ega bo‘lsa, omonimiya hodisasining yuzaga chiqishi uchun shart – sharoit yaratiladi.

Har ikki hodisa ham tilning imkoniyatdagi me’yorlariga asoslanadi.

Qismlari -mi shakli orqali birikkan ergash gapli qo‘shma gaplarda sintaktik polisemiya va sintaktik omonimiya faol amal qiladi. *Bahor keldimi, dalada ish qiziydi* (So‘zlashuv nutqidan)

¹ Золотова Г. А. Коммуникативные аспекты русского синтаксиса. – М.: Наука, 1982, - с. 69-70.

² Убаева Ф. Хол категорияси. – Т., Фан, 1971, 139-140-бетлар.

gapi *Kechasi eshik ochilib qolganmi, ertalab tursam, burnim berk* (Sh.Xomirzayev) gapi bilan omonimik munosabat hosil qiladi. Chunki bu ikki sintaktik konstruksiya ma'nolari o'rtasida bog'lanish yo'q. Ular alohida – alohida invariant ma'nolarga birlashadi. Birinchi gap shart ma'nosi bilan bog'langan payt ma'nosida, ikkinchi gap esa noaniqlik – taxmin ma'nosi bilan bog'langan sabab ma'nolariga ega. *Bahor keldimi, dalada ish qiziydi* gapi *Seni turtkilashdimi, indamay biznikiga chiqib kelaver* (S.Zunnunova) gapi bilan polisemik munosabat hosil qiladi. Chunki har ikki konstruksiya shart ma'nosi doirasida o'zaro tutashadi.

Insoniyat hamisha tejamlilikka intiladi. Polisemiya va omonimiya hodisalarining til sintaktik sathida amal qilishi insonlar uchun faqat foyda keltiradi, xolos. Bu hodisalarning tilda mavjud bo'lishi ifoda madaniyatining o'sishiga, uning yanada mukammallashuviga yordam beradi.

XULOSA

Gap qurilishiga xos shakl va mazmun munosabatini hamda o'zbek tilidagi sintaktik polisemiya hodisasini o'rganish quyidagi umumiy xulosalarni chiqarishga imkon berdi:

1. Tilning sintaktik sathiga xos polisemiya hodisasini o'rganish uchun gap va uning grammatik ma'nosini bilish juda muhimdir. Grammatika tilning funksional imkoniyatini belgilovchi o'lchovdir, chunki har qanday tilning funksional imkoniyati uning grammatik qurilishi orqali yuzaga chiqadi.

Sintaksisga daxldor ma'nolar sirasiga predikativlik, so'z birikmasi va gap tarkibiy qismlarining ichki bog'lanishlari, bog'lovchilar yordamida qo'shma gap qismlarining birikuvini tuyfayli yuzaga chiqadigan har xil ma'nolar kiritiladi. Sintaksisga xos grammatik ma'nolarda gap va uning mazmuni masalasiga alohida e'tibor beriladi.

2. Sintaksisda grammatik ma'noni tashuvchi shakliy birlik gapning qurilish andozasi (modeli)dir. Gap modellarida ifodalangan ma'nolar o'ta umumiy bo'lib, shu modelda voqelanuvchi son – sanoqsiz gaplar uchun mushtaraklik xususiyatiga ega bo'ladi. Gap modellarida ifodalanadigan ma'nolar tipik ma'nolar deb ham yuritiladi.

3. Belgi atamasi keng ma'noda ishlatilib, morfema, so'z, gap va gapdan ham yirikroq sintaktik butunliklarga nisbatan qo'llanadi.

Til birligi tavsifidagi gaplarning ifodalovchi tomonini ularning modeli tashkil qiladi, ifodalanuvchi tomoni esa signifikatga teng keladi.

Nutq birligi sifatidagi gap (jumla)larning ifodalovchi tomoni konkret so'z shakllari va ularning o'zaro munosabatlaridan iborat. Ularning ifodalanuvchi tomonini esa nutq vaziyatining konkret denotatlari va ularning o'zaro

munosabati tashkil qiladi.

4. Sintaktik birliklarning, xususan, gaplarning shakliy va mazmuniy jabhalari bilan bog'liq nomutanosiblik ikki xil bo'ladi: sintagmatik nomutanosiblik va paradigmatik nomutanosiblik.

Sintagmatik nomutanosiblikda gapning funksional (shakliy – grammatik) birliklari bilan ularning semantik birliklari miqdori muvofiq kelmaydi. Sintagmatik nomutanosiblik sodda gaplar sathida uyushiq va ajratilgan bo'lakli, undalmali, kirish va kiritmali gaplar, ustama predikatsiyali gaplar, shuningdek, bir bosh bo'lakli, to'liqsiz hamda teng bog'lovchilar qatnashgan gaplar uchun, qo'shma gaplar sathida esa ko'p komponentli qo'shma gaplar uchun xosdir.

5. Paradigmatik nomutanosiblik tufayli til birliklarining ba'zan shakliy, ba'zan mazmuniy jabhalarida nomutanosiblik yuzaga keladi. Shakl planiga xos nomutanosiblik sinonimiya, parallelizm, dublet singari hodisalarni o'z ichiga olsa, mazmun planiga xos nomutanosiblik polifunksionallik, sinkretizm, omofoniya, omografiya, amfiboliya singari hodisalar bilan bog'lanadi.

Sintagmatik nomutanosiblikda bo'lganidek, ortiqchalik va tejamlilik hodisalari paradigmatik nomutanosiblikda ham uchraydi. Shakliy plandagi nomutanosiblikda shakliy birliklar ortiqcha bo'lib, mazmuniy birliklar tejamlilik. Mazmuniy planga xos nomutanosiblikda esa mazmuniy birliklar ortiqcha bo'lib, shakliy birliklar tejamlilik.

Nomutanosiblik til taraqqiyotini belgilovchi ijobiy hodisalardan biridir. U qaysi til sathida bo'lishidan qat'i nazar, tilning belgilik tabiatiga asoslanadi.

6. Shakldoshlik xususiyatiga ko'ra paradigmatik nomutanosiblik hosil qiluvchi polisemiya hodisasi tilning fonologik sathidan tashqari, barcha sathlarida mavjud. Polisemiyaning tabiatini ochishda semasiologik yondashuv bosh omil hisoblanadi. Bu hodisaning tilda mavjud bo'lishi tejamlilik tamoyilining o'ziga xos ko'rinishlaridan biridir.

7. Polisemiya til hodisasi sifatida talqin etilganda, polisemantiklik gapning sintaktik qurilishini tipiklashtiruvchi va uni abstrakt jabhaga olib chiquvchi sintaktik konstruksiyalarga nisbatlanadi. Qismlari **va, ammo, lekin, biroq, bo'lsa, esa, -u, -yu, -da** shakllari orqali bog'langan qo'shma gaplar doirasida, shuningdek, qismlari **-ki, -sa, -mi** shakllari orqali birikkan ergash gapli qo'shma gaplar doirasida polisemiya hodisasi faol amal qiladi.

8. Sintaktik omonimiya ham sintaktik polisemiya singari shakldoshlik xususiyatiga ko'ra paradigmatic nomutanosiblik hosil qiluvchi hodisalar sirasiga kiradi. Polisemiya va omonimiya bir – biriga o'xshash hodisalar bo'lsa – da, ular o'rtasida ma'lum bir farq ham mavjud. Sintaktik polisemiya bu ma'nolari o'zaro bog'liq va bir invariant ma'no doirasida tutashuvchi o'ziga xos lisoniy hodisadir. Shaklan o'xshash sintaksemalar biror bir ma'no doirasida o'zaro tutashmasa, ular har xil invariant ma'nolarga ega bo'lsa, bunday holatda sintaktik omonimiya haqida gapirish o'rinlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абдурахмонов Ф. Қўшма гап синтаксиси асослари. –Т., 1958.
2. Абдусаматов Р.А. Ўзбек тилида гап бўлақларининг ноамалий мавқеи масаласи. Филол.фанлари номзоди...дис.автореф. – Самарқанд, 1994.
3. Абузалова М.Қ. Ўзбек тилида содда гапнинг энг кичик қурилиш қолипи ва унинг нутқда воқеланиши. Филол. фанлари. номзоди... дисс.автореф. – Т., 1994
4. Асқарова М., Бердиалиев А. Гапнинг тил – рамз ишораларига муносабати ҳақида// Туркий тилларнинг тараққиёти муаммолари. – Т., 1995.
5. Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. – М.: Изд. ин. лит. 1955.
6. Бердиалиев А. Эргаш гапли қўшма гап конструкцияларида семантик – сигнификатив парадигматика. – Т.: Фан, 1989.
7. Бердиалиев А. Алишер Навоий насрий асарлари тилининг бир синтактик хусусияти ҳақида//Алишер Навоий. Илмий мақолалар тўшлами. –Хўжанд, 1991.
8. Бердиалиев А. Ўзбек тили эргаш гапли қўшма гапларида синтактик алоқа ва синтактик муносабатлар. –Т.: «Университет» нашриёти, 1993.
9. Березин Ф.М., Головин Б.Н. Общее языкознание. – М.: Просвещение., 1979.
10. Березин Ф.М. История лингвистических учений. –М.: Высш.шк., 1984.
11. Бондарко А.В. Грамматическая категория и контекст. –Л.: Наука, 1971.
12. Будагов Р.А. Человек и его язык. –М.: МГУ., 1976.
13. Бульгина Т.В. Грамматические и семантические категории и их связи// Аспекты семантических исследований. – М., 1980.
14. Бульгина Т.В. Проблемы теории морфологических моделей. М.: Наука, 1977.
15. Бурлакова В.В. К вопросу о грамматической омонимии в современном английском языке // Исследования по английской филологии. Сб. ст. Изд-во ЛГУ, 1961.
16. Валимова Т.В. О соотношении семантической и формальной структуры предложения//Семантическая структура предложения. –Ростов, 1978.

17. Васильевский А.Л. Полисемия и омонимия конструкции с субстантивным сказуемым в современном английском языке. Автореф. дисс... канд филол наук. –М., 1962.
18. Виноградов В.В. Русский язык. Грамматическое учение о слове. –М–Л.: Учпедгиз, 1947.
19. Гак В.Г. Теоретическая грамматика французского языка. Синтаксис. –М.: Высш.шк., 1981.
20. Засорина Л.Н. Введение в структурную лингвистику. – М.: Высш.шк. 1974.
21. Золотова Г.А. Очерк функционального синтаксиса русского языка. – М.: Наука, 1973.
22. Золотова Г.А. Коммуникативные аспекты русского синтаксиса. – М.: Наука, 1982.
23. Касевич В.В. Элементы общей лингвистики. – М.: Наука, 1977.
24. Качала Я. О грамматической и семантической перспективе предложения//Проблемы теории грамматического залога. –Л., 1978.
25. Колшанский Г.В. Некоторые вопросы семантики языка в гносеологическом аспекте//Принципы и методы семантических исследований. – М., 1976.
26. Колшанский Г.В. Контекстная семантика. –М.: Наука, 1980.
27. Корельская Т.Д. О формальном описании синтаксической синонимии. – М.: Наука, 1975.
28. Ломтев Т.П. Принципы построения формулы предложения. НДВШ. Сер. филол. наук. 1972. №5 с.50-78.
29. Мамажонов А. Қўшма гап стилистикаси. –Т.: Фан, 1990.
30. Маулер Ф.И. Грамматическая омонимия в английском языке. Часть I, –Орджоникидзе, 1977.
31. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Т., 1995.
32. Маҳмудов Н.М. Ўзбек тилидаги содда гапларда семантик-синтактик асимметрия. –Т.:Ўқитувчи, 1984
33. Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. –Т.: Фан, 1975.
34. Новиков Л.А. Семантика русского языка. – М.: Выс.шк., 1982.
35. Нурмонов А. Проблемы системного исследования синтаксиса узбекского языка. – Т.: Фан, 1983.
36. Нурмонов А., Маҳмудов Н., Аҳмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Т.: Ўқитувчи. 1992.
37. Сайфуллаева Р. Уюшган гаплар//Ўзбек тили ва адабиёти. 1988, 3-сон.
38. Салькова Д.А. Некоторые вопросы омонимии и многозначности

- синтаксических конструкций. Автореф.дисс... канд.филол.наук. – М., 1967.
39. Салькова Д.Е. К определению синтаксической омонимии // Уч.зап. 1-МГПИИЯ им. М.Тореза. Т.37. –М., 1967.
 40. Солнцев В.М. К вопросу о глубинной структуре и порождении смысла предложения// Теория языка. Англистика. Кельтология. – М., 1976.
 41. Убаева Ф. Ҳол категорияси. –Т., Фан, 1971.
 42. Усмонова Ҳ. Дескрипция (мураккаб ном) ва унинг гап тузилишидаги ўрни. Филол.фанлари.номз.дисс....автореф. – Тошкент, 1994.
 43. Чеснокова Л.Д. К вопросу об элементарной синтаксической единице // Теоретическое проблемы синтаксиса современных индоевропейских языков. –Л., 1975.
 44. Шендельс Е.И. О грамматической полисемии // Вопр. языкознания., 1962, -№3.
 45. Шендельс Е.И. Многозначность и синонимия в грамматике. –М.: Высш.шк. 1970.
 46. Шмелёв Д.Н. Современный русский язык. –М.: Просвещение., 1977.
 47. Ўзбек тили грамматикаси. II том. Синтаксис. –Т.: Фан, 1976.
 48. Ғуломов А.Ғ., Аскарлова М.А. Ҳозирги замон ўзбек тили.Синтаксис. –Т.: Ўрта ва олий мактаб. 1961.

MUNDARIJA :

GAP QURILISHIDA SHAKLIY-MAZMUNIY NOMUTANOSIBLIK	4
Gapning til belgilariga munosabati masalasi	18
Gap qurilishida sintagmatik va paradigmatic nomutanosiblik hamda polisemiya	25
SINTAKTIK POLISEMIYA TIL HODISASI SIFATIDA ..	44
Bog‘langan qo‘shma gaplarda ko‘p ma‘nolilik.....	51
Qismlari va bog‘lovchisi orqali bog‘langan qo‘shma gaplarda ko‘p ma‘nolilik	53
Zidlov bog‘lovchilari yordamida bog‘langan qo‘shma gaplarda ko‘p ma‘nolilik	55
<i>Bo‘lsa, esa</i> so‘zlari yordamida bog‘langan qo‘shma gaplarda polisemiya	58
<i>-u, -yu, -da</i> yuklamalari yordamida bog‘langan qo‘shma gaplarda ko‘p ma‘nolilik	60
Ergash gapli qo‘shma gaplarda ko‘p ma‘nolilik	64
Qismlari <i>-ki</i> bog‘lovchisi orqali bog‘langan ergash gapli qo‘shma gaplarda polisemiya	65
Fe‘lning shart mayli shakli orqali bog‘langan ergash gapli qo‘shma gaplarda ko‘p ma‘nolilik	66
Qismlari <i>-mi</i> shakli orqali bog‘langan ergash gapli qo‘shma gaplarda polisemiya	71
SINTAKTIK POLISEMIYA HAMDA SINTAKTIK OMONIMIYA (o‘xshashligi va farqi).....	74
XULOSA	81
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	84

ROZIQOVA GULBAHOR ZAYLOBIDINOVNA

**GAP QURILISHIGA XOS SHAKLIY – MAZMUNYI
NOMUTANOSIBLIK VA SINTAKTIK POLISEMIYA**

*Oliy o‘quv yurtlari filologiya fakulteti
o‘zbek tili yo‘nalishi talabalari uchun*

Texnik muharrir: S.Jo‘rayev

Kompyuter ishlari va sahifalovchi: Sh.Abdurahimova

«JAHONNASHRIYOT» XKda chop etildi.

150114. Farg‘ona sh. Gertsen k., 2.

Bichimi: 60x84 1/16. Hajmi: 5.5 b.t. Nusxasi: 100 dona.

Buyurtma-31.

Lits. 22-1568. 27.07.2007 y.